

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

*Qo'lyozma huquqida*

**UDK: 36:35**

**XASANOV MURODULLA MUXIDDIN O'G'LI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA  
TA'MINOTINING AXBOROT TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Mutaxassislik: 5A231301 – “Pensiya ishi”**

**Magistr akademik darajasini olish ushun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**A.N.Umirzakov**

**TOSHKENT – 2017**

## М У Н Д А Р И Ж А

|                                                                                                                                              |           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                           | <b>3</b>  |
| <b>I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMINING TASHKILY, NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>                 | <b>9</b>  |
| 1.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va xususiyatlari.....                                                              | 9         |
| 1.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimida interaktiv xizmatlarning o'rni va ahamiyati.....                                                      | 19        |
| 1.3. Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimining xususiyatlari, turlari va huquqiy-me'yoriy asoslari.....                                  | 25        |
| I bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                   | 32        |
| <b>II BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....</b>                       | <b>33</b> |
| 2.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimi holatining tahlili.....                                                                                 | 33        |
| 2.2. O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidan foydalanishning bugungi kundagi holati va tahlili.....            | 43        |
| 2.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining axborot tizimidan foydalanish amaliyoti tahlili.....                                        | 53        |
| II bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                  | 63        |
| <b>III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>                    | <b>65</b> |
| 3.1. Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni barataf etish yo'llari.....                       | 65        |
| 3.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish va rivojlantirish masalalari..... | 71        |
| III bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                 | 78        |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>                                                                                                              | <b>79</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                               | <b>83</b> |

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zotan, bunday texnologiyalar axborotlashgan jamiyat negizini tashkil etib, odamlarning uzog'ini yaqin, og'irini engil qilmoqda. Buni "2015-yilda dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 2000-yildagiga nisbatan 7 marta ko'payib, 3,2 milliardga, mobil telefon abonentlari esa 7 milliardga etgani tasdiqlab turibdi"<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) ning taxminan 5,5 foizi AKT sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020-yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan ortadi. Masalan, Koreya Respublikasining YaIMda mazkur sohaning ulushi 11,8 foizdan oshishi kutilayapti. Chunki ushbu mamlakatdagi "Innopolis" texnologik parkiga jalb qilingan 54 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 25 ta universitet, 37 ta agentlik va 3327 kompaniya mutaxassisleri hamda 29 mingga yaqin fan doktorlarining izlanishlari shu soha ravnaqiga qaratilgan.

Darhaqiqat, hozirgi paytda AKT rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining lokomotiviga aylangan. Mazkur soha global inqiroz sharoitida ham faol rivojlanayotgani diqqatga sazovor, ya'ni AQShda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga qaraganda, ayni shu davrda internetni taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan bir dollar mamlakat iqtisodiyotiga 10 dollar bo'lib qaytgani kuzatildi. Shu bois investorlarning bu serdaromad tarmoqqa bo'lgan qiziqishi yanada kuchayib, jalb qilinayotgan sarmoyalar hajmi oshirilmoqda. Buning evaziga o'tgan yili Evropa Ittifoqida 1 milliondan ortiq ish o'rinlari yaratish, 850 milliard evro daromad ko'rishga erishildi.

AKTning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, undan foydalanish global xarakterga ega. Bu, ayniqsa, boshqaruv tizimida mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Dunyoda birinchi bo'lib iqtisodiyot

---

<sup>1</sup> <http://xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item.sayti> ma'lumotlari.

sohalarini optik tolali tarmoq bilan to'liq ta'minlagan Singapur, Shvetsiya davlatlarida qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar bunga misol bo'la oladi.

Ta'kidlash joizki, axborot tizimlari va AKTlari ijtimoiy sohalar taraqqiyotida ham muhim o'rin egallamoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo'nalishi sifatida qabul qilinishi<sup>2</sup> mazkur soha taraqqiyotini ta'minlash masalasining dolzarbligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida: "Soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi"<sup>3</sup>. Albatta, davlatning ijtimoiy majburiyatlarining bajarilishi, bunda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning aniq hisob-kitob qilinishi, o'z vaqtida to'liq hajmda to'lanishi va umuman pensiya ta'minoti tizimining samaradorligi bevosita ushbu tizimda qo'llanilayotgan AKTlariga ham bog'liqdir.

Respublikamiz iqtisodiyotiga AKTni bosqichma-bosqich joriy qilish, axborotlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Istiqlol yillarida sohaning huquqiy asosi yaratilib, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlar, Prezidentimizning 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2013-yil 20-sentyabrdagi "Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bunda dasturilamal bo'layapti. Natijada birgina 2015-yil davomida 1800 km. uzunlikdagi optik tolali aloqa tarmoqlari bunyod etilib, infratuzilmani rivojlantirish, internetdan samarali foydalanishga erishildi.

Jahon sivilizatsiyasiga daxldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash qiyin. O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay olishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishning ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshirishda qanday rol o'ynashiga bog'liq. Chunki, yangi axborot tizimlari tez va kam minimal yo'qotishli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etadi. Xohlagan tashkilot egasi tanlashda qulaylik, daromadlilik va ishonchlilik qoidalarini ilgari suradi. Bu esa tashkilot operatsiyalarining kompyuterlashtirilishiga va butunlay internetga bo'lgan e'tiborni oshiradi.

So'nggi yillarda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida moliyalash, barqaror daromadlarni ta'minlash, shuningdek, yangi axborot tizimidan foydalangan holda barcha tarkibiy bo'linmalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash Pensiya jamg'armasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotining axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Yuqoridagi holatlar, o'z navbatida, tanlangan mazkur magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi va uning tanlanishiga asos bo'ladi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Magistrlik dissertatsiya ishining obyekti bo'lib, davlat pensiya ta'minotida axborot tizimi hisoblanadi. Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidan foydalanish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar magistrlik dissertatsiya ishining predmetini tashkil qiladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- davlat pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, pensiyaning mazun-mohiyatini ochib berish;
- davlat pensiya ta'minoti tizimida interaktiv xizmatlarning o'rnini va ahamiyatini ochib berish;
- davlat pensiya ta'minotida axborot tizimining xususiyatlari, turlari va huquqiy-me'yoriy asoslarini yoritish;
- davlat pensiya ta'minoti hozirgi holatini, shu jumladan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari tahlilini amalga oshirish va unga oid tendentsiyalarni aniqlash;
- O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidan foydalanishning bugungi kundagi holatini tahlil qilish va ular yuzasidan muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning echimlarini topish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Ilmiy yangiligi:**

- pensiya ta'minotida foydalaniladigan axborot tizimlarining mazmuni, maqsadi, vazifalari, afzalliklari, ishlash printsiplari aniqlangan va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning 2017-2020 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasi yaratilgan;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotida axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimi taraqqiyotini ta'minlash imkonini beradi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Pensiya tizimi va davlat pensiya ta'minoti bo'yicha bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlar<sup>4</sup> ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular jumlasiga – Jun Peng, E.Philip Davis, Borisenko N.Yu. kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan<sup>5</sup> B.A.Begalov, B.X.Umurzakov, A.V.Vaxabov, M.D.Ziyadullaev, T.S.Malikov, Z.A.Abdullaev, Z.X.Srojiddinova, Sh.Sh.Allayarov va D.D.Toshmuxammedovalar ilmiy ishlarida ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minoti, davlat pensiyalari, nodavlat pensiya fondlari kabilar tadqiqot qilingan.

Ushbu ilmiy ishlardan farqli o'laroq, mazkur dissertatsiya ishida davlat pensiya ta'minotining axborot tizimlarini, AKTni, interaktiv xizmatlarni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan va ularga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini joriy etish va rivojlantirish Kontseptsiyasi ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Pensiya

---

<sup>4</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.; E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3; Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2009. – 576 с.

<sup>5</sup> Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari.; Умурзаков Б.Х. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана; Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari.; Ziyadullaev M.D. Pensiya ta'minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar.; Abdullaev Z.A. Yoshga doir ijtimoiy nafaqaning mazmun mohiyati va uning O'zbekistondagi pensiya ta'minoti tizimida tutgan o'rni.; "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami. 2017-yil 24-mart. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 420 b.; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: "Noshir", 2012.–712b.; Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent: "infoCom.UZ" MChJ nashriyoti, 2010. – 367 b.; Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 232 b.

jamg'armasi faoliyati", "Davlat pensiya ta'minoti" hamda "Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar" kabi fanlarning o'quv dasturlarini o'qitishda va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 87 betni tashkil qiladi. Tadqiqot ishida 11 ta jadval va 5 ta rasm keltirilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi, tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati hamda ish tuzilmasining tavsifi bayon qilingan.

Magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobida davlat pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari, pensiyaning mazmun-mohiyati ochib berilgan, davlat pensiya ta'minoti tizimida interaktiv xizmatlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan, davlat pensiya ta'minotida axborot tizimining xususiyatlari, turlari va huquqiy-me'yoriy asoslari ochib berilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida davlat pensiya ta'minotining hozirgi holati, shu jumladan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari tahlili amalga oshirilgan va unga oid tendentsiyalar aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidan foydalanishning bugungi kundagi holati tahlil qilingan va ular yuzasidan muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining uchinchi bobida davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidagi mavjud muammolar aniqlangan va ularning echimlari ko'rsatib o'tilgan hamda davlat pensiya ta'minotida axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining xulosa va takliflar qismida O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotining axborot tizimi yuzasidan umumiy xulosalar shakllantirilgan va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

# **I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMINING TASHKILIY, NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va xususiyatlari**

Mustaqillik yillarida davlat pensiya ta'minoti tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 1993-yil 3-sentabrda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, 2013-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli Farmoni, 2009-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1252-sonli, 2011-yil 8-sentabrda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrda "2015-2017-yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qarori shular jumlasidandir. Natijada mustaqil O'zbekiston Respublikasining bosib o'tgan 25 yillik taraqqiyotida fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti sohasida yaxlit tizim yaratildi.

Pensiya tizimi aholining qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar va boshqa ijtimoiy ta'minotga muhtoj aholi qatlamlarini qamrab olganligi sababli ijtimoiy ziddiyatga moyil soha hisoblanadi.

Pensiyalar ijtimoiy ta'minotning muhim ko'rinishi hisoblanib, mavjud qonunchilikka ko'ra "pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va

me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"<sup>6</sup> sifatida ta'riflanadi.

Pensiya lotincha "pensio" so'zidan olingan bo'lib, "to'lov" ma'nosini anglatadi. AQShning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e'tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o'zgarishlarni tadqiq etadi. Pensiya ta'minotiga ta'sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; AQSh va butun dunyoda aholisining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi; xususiy tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an'anaviy pensiya ta'minotining yo'qolib borayotganligi; davlat sektoridagi ishchi-xodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshishi; tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada o'sishi.

Dunyoning taraqqiy etgan davlati hisoblanmish AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi lozim bo'ladi<sup>7</sup>.


Iqtisod fanlari doktori, professor T.Malikov fikricha: "pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovi"<sup>8</sup>, deb izohlanadi, ayrim iqtisodiy adabiyotlarda "pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlar muvofiq aniqlanadigan hamda

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli qarorining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandi, 2-xatboshi.

<sup>7</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-5.

<sup>8</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. 676-b.

shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"<sup>9</sup>, deya ta'riflangan.



**1.1-rasm. Pensiyaning iqtisodiy-ijtimoiy tavsifi<sup>10</sup>**

Fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiyalar deyiladi. Ushbu to'lovlarni maxsus pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga to'lanishining ta'minlanishi pensiya ta'minotini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega". "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasiga binoan pensiyaning yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik turlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta'minotini tartibga soluvchi asosiy hujjat 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Mazkur qonunning 7-moddasiga ko'ra fuqaro umumiy tartibda yoshga doir pensiya olish huquqiga

<sup>9</sup> Allayarov Sh., Toshmuxeimedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. 232-b.

<sup>10</sup> Tadqiqot natijalari asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lganda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lganida ega bo'lishadi. Qonunga ko'ra mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab, yoshga doir pensiyaga imtiyozli ravishda chiqish tartiblari ham belgilangan bo'lib, bunday mehnat faoliyati turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-son "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra belgilanadi. Qonunchilikda imtiyozli ravishda pensiyaga chiqishning quyidagi muddatlari belgilangan:

- yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiya olish huquqi;
- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi;
- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi;
- umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi;
- liliputlar va pakanalarga pensiyalarga tayinlanuvchi imtiyozli pensiyalar (umumiy belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish).

Nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Nogironlik sabablari va guruhleri, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi 195-sonli "Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo'qotilishi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida belgilanadi.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga ko'ra xodim mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligi sababli nogiron bo'lib qolganda nogironlik pensiyasi ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi,

umumiy kasallik oqibatida nogironlik yuz bersa, pensiya nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi:

- 23 yoshga qadar – 2 yillik ish staji;
- 23 yoshdan 26 yoshga qadar – 3 yillik ish staji;
- 26 yoshdan 31 yoshga qadar – 5 yillik ish staji;
- 31 yoshdan 36 yoshga qadar – 7 yillik ish staji;
- 36 yoshdan 41 yoshga qadar – 9 yillik ish staji;
- 41 yoshdan 46 yoshga qadar – 11 yillik ish staji;
- 46 yoshdan 51 yoshga qadar – 14 yillik ish staji;
- 51 yoshdan 56 yoshga qadar – 17 yillik ish staji;
- 56 yosh va undan oshganda – 20 yillik ish staji.

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari ishlovchi xodim vafot etganda uning qaramog'ida bo'lgan mahnatga layoqatsiz oila a'zolariga tayinlanadi. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish uchun talab qilinadigan mehnat staji "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Pensiya olish huquqi paydo bo'lgan fuqaro o'zi istiqomat qilayotgan tumandagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limiga pensiya olish uchun talab qilinuvchi zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi. Fuqaroning arizasiga ilova qilinuvchi hujjatlarga fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar, oylik ish haqi ma'lumotnomalari, nogironlik belgilanganligini tasdiqlovchi hujjatlar, vafot etgan xodimga qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlar, jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi, soliq to'lovchining identifikatsion raqami taqdim etiladi. Fuqaro pensiya so'rab murojaat qilgan kundan boshlab, o'n ish kuni mobaynida fuqaroning arizasi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limining pensiya

tayinlash komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi<sup>11</sup>. Komissiya bu muddat ichida fuqaroga pensiya tayinlash (qo'shimcha hujjat yoki berilgan hujjatlarni korxona, tashkilot yoki arxivdan tekshirishga) yoki pensiya tayinlashni rad etish to'g'risida qaror chiqaradi hamda pensiya tayinlash rad etilgan holda, taqdim etilgan hujjatlar Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi tomonidan rad etish sabablari izohlangan holda fuqaroga qaytariladi.

Ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlari "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 37-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra faoliyat turi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda har bir bajargan ish, agar u Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa, ushbu faoliyat turi ish stajiga qo'shiladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari va akademiyalarida kunduzgi o'qish yillari ham ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

Ish staji pensiya olish uchun asosiy tarkibiy qismlardan biri sanaladi. Bugungi kunda yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar tayinlash tartibi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 8-moddasi bilan tartibga solinib, unga asosan ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi yoshga doir pensiyalar qonunning 37-moddasi birinchi qismining tegishli bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 130-bandiga asosan to'liq bo'lmagan ish staji holatida pensiya mavjud stajga mutanosib ravishda quyidagicha hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to'liq pensiya aniqlanadi, ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo'linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko'paytiriladi. Staj davlat pensiyasini olish huquqini belgilovchi va uning miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti

---

<sup>11</sup> Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "Tamaddun", 2015. 10-17-b.

to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga asosan, ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

O'rtacha ish haqini aniqlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini uning yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Pensiya tayinlashda talab etilganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun yoshga doir hamda I va II guruh nogironlik pensiyalarida o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari uchun boquvchi o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida qo'shimcha qo'shiladi. Pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlar pensiya turidan qat'i nazar:

- I guruh urush nogironlariga eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolg'iz nogironlariga eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush yillarida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga – xizmatlariga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

– yoshidan qat’i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo’lgan artistlarga eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

– teatr-kontsert tashkilotlari artistlari va badiiy jamoalar xodimlariga, teatr-musiqqa san’ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o’quv muassasalarining professor-o’qituvchilari hamda kontsertmeysterlari pensiyasiga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro’yxatga ko’ra eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida qo’shiladi.

2014-yilning 4-dekabrida O’zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2015-yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’RQ-379-sonli qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjatning pensiya sohasiga oid o’zgartirishlar aks etgan 1-moddasi 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kirdi. Ushbu qonunning 1-moddasi bilan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga kiritilgan o’zgartirish va qo’shimchalar mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Pensiyalarning tayanch miqdoriga doir: “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 26-moddasiga kiritilgan o’zgartishlarga muvofiq endilikda pensiyalarning tayanch miqdori O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga nisbatan belgilanadi hamda amaliyotga moslashtirildi.

2. Ish staji to’liq bo’lmagan chog’dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdoriga doir: bundan buyon ish staji to’liq bo’lmagan chog’dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdori oldingidek eng kam ish haqiga nisbatan emas, balki O’zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga mutanosib ravishda hisoblanadi. Xuddi shu mazmundagi o’zgartish “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunining 29-moddasiga kiritildi. Shunday qilib, 2016-yil 1-oktyabrdan boshlab, ish staji to’liq bo’lmagan chog’dagi pensiyalar yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilangan:

## 1.1-jadval

### Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdori hisob-kitobi<sup>12</sup>

| Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar turlari                                             | 2015 yil<br>1 yanvardan<br>boshlab |                                                | 2016 yil<br>1 oktabrdan<br>boshlab |                                                |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------|------------------------------------------------|------------------------------------|------------------------------------------------|
|                                                                                                     | %                                  | Yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan, so'mda | %                                  | Yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan, so'mda |
| Yoshga doir pensiyalar                                                                              | 50                                 | 115 787,5                                      | 50                                 | 146470                                         |
| I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari                                                        | 100                                | 231 575                                        | 100                                | 292940                                         |
| II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari                                                       | 50                                 | 115 787,5                                      | 50                                 | 146470                                         |
| Oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi                   | 50                                 | 115 787,5                                      | 50                                 | 146470                                         |
| Ham otasi, ham onasidan judo bo'lgan (chin etim) har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi | 100                                | 231 575                                        | 100                                | 292940                                         |

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonunning 36-moddasida ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlariga qo'shimcha kiritildi<sup>13</sup>. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo'lgan, lekin 10 yildan oshmagan davr ham endilikda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 10-fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan “Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qaror (2222-2-son)ga ko'ra, 2014-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishlaydigan va qonun hujjatlari bilan belgilangan yoshga

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 13-sentabrdagi 69-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdagi PF-4822-son “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida”gi Farmoni bo'yicha pensiyalarni qayta hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-dekabrda O'RQ-379-sonli qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan. O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlar to'plami, 2014-y., 49-son, 579-modda.

doir pensiyalarning minimal miqdoridan past daromad (gonorar, mukofot va boshq.) oladigan pensionerlarga pensiya to'liq miqdorda to'lanishi haqidagi yangi qoida kiritildi. Ishlovchi pensionerlarga ularga tayinlangan pensiyaning 50 foiz miqdorida pensiyalar faqat pensioner fuqarolik huquqiy (mehnat shartnomasi) tushdagi shartnoma bo'yicha ishlagan kunlar uchun to'lanadi. Pensioner fuqarolik huquqiy tushdagi shartnoma tuzmagan qolgan kunlarda pensiyalar qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda to'liq miqdorda to'lanadi. Quyida to'lanayotgan pensiya miqdorini hisoblash bilan bog'liq bir qator misollar ham keltirilgan:

#### 1-misol

2016-yil 15-yanvarda yoshga doir pensiya oluvchi ishlaymagan pensioner mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilindi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 380800 so'm tashkil qiladi. 2016-yil 1-yanvardan 14-yanvargacha bo'lgan davr uchun pensiya 100 foiz miqdorida ( $380\,800 : 31 \times 14 = 171\,974,19$  so'm), 15-yanvardan 31-yanvargacha bo'lgan davr uchun 50 foiz miqdorida ( $380\,800 : 31 \times 17 \times 50\% = 104\,412,90$  so'm) to'lanadi. 2016-yil yanvar oyi uchun pensiya to'lovi miqdori 279387,09 so'mni ( $171\,974,19$  so'm +  $104\,412,90$  so'm) tashkil qiladi.

#### 2-misol

2016-yil 2-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlaymagan pensioner bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 250,0 ming so'm miqdorida tuzdi va u bo'yicha majburiyatlar pensioner tomonidan yanvar oyi davomida bajarildi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 420600 so'mni tashkil qiladi. Yanvar oyi uchun yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori 292940 so'm miqdorini tashkil etadi. Yanvar oyi uchun pensiya 420600 so'm miqdorida to'lanishi lozim.

#### 3-misol

2016-yil 2-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlaymagan pensioner bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 900,0 ming so'm miqdorida tuzdi va u bo'yicha majburiyatlar pensioner tomonidan 3 oy davomida bajarildi. Pensionerning o'rtacha oylik daromadi 300 ming so'mni tashkil etadi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 420600 so'mni tashkil qiladi. oktabr, dekabr va yanvar oylari uchun yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori 292940 so'm miqdorini tashkil etadi. Yanvar, fevral va mart oylari uchun pensiya har oyda 210300 so'm miqdorida to'lanishi lozim.

#### 4-misol

2016-yil 15-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlaymagan pensioner ommaviy axborot vositalarida maqola chop etish uchun bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 150,0 ming so'm miqdorida tuzdi va u bo'yicha majburiyatlar pensioner tomonidan shu kunning o'zida bajarildi. 2016-yil oktabr oyi uchun pensiya to'liq miqdorda to'lanishi lozim.

### 1.2-rasm. Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lanishiga oid misollar<sup>14</sup>

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 10-fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan "Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2222-2-sonli qarori asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

Ma'lumki, pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to'lanar edi. 2015-yil 1-yanvardan boshlab bu davr 3 yildan 12 oyga qisqartirildi.

Xullas, O'zbekistonda pensiya tizimidagi islohotlar fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirmoqda hamda ularning hayoti farovonligini ta'minlamoqda.

## **1.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimida interaktiv xizmatlarning o'rni va ahamiyati**

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham veb-dasturlash yo'nalishi bo'yicha bir qator: veb-hujjatlarni yaratish, ularni internetda chop etish, veb-hujjatni ko'rkamlashtirish, qiziqarli va o'ziga tortuvchi xususiyatlarga ega qilib yaratish va undagi ma'lumotlarni doimiy tarzda yangilab borish kabi vazifalarni o'rgatishga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurslari tashkil etilgan, bundan tashqari davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, AKTdan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslar orasida tezkor muloqat va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, taqdim etiladigan xizmatlardan keng qamrovli foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustidagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 181-sonli qarori asosida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari haqida"gi Nizom va "Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri" tasdiqlangan. Internet texnologiyalarini rivojlantirish va ommalashtirish internet xizmatlari provayderlari va operatorlari hamda ma'lumot uzatish tarmoqlari sonining oshishi bilan bevosita bog'liqdir. Hukumatimizning xalqaro ma'lumotlar uzatish tarmoqlaridan

foydalanish kanalining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga ko'maklashayotgani sababli provayderlar soni keskin ko'paymoqda.

Interaktivlik deganda biz, faqatgina, o'rganilayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqatni tashkil etishni tushunamiz. Demak, kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o'rnatamiz.

Vikipediya onlayn entsiklopediyasida interaktivlikka shunday ta'rif berilgan: "Interaktivlik – tizimni tashkil etish tamoyili bo'lib, muayyan maqsadga, shu tizim elementlari axborot almashuvi orqali erishiladi". Oddiyroq aytganda, masalan, mobil telefon orqali ma'lum bir saytga kirib, qandaydir dastur yoki o'yinni telefonga yuklab olish ham nazarimizda interaktivlikning bir ko'rinishidir. Ya'ni, virtual vosita orqali real maqsadga erishiladi.

Umuman olganda, interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog'liq, ya'ni maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi informatsion ma'lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, ijtimoiy va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, informatsion va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi, ya'ni kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan, deb tushuniladi.

Veb sahifa internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularni soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarning turli ko'rinishdagi: matn, grafik, tasvir, video, audio ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda veb internet resurslar to'plami resurslar majmualari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. Chunki, avvaldan tayyorlangan veb sahifa orqali tegishli ma'lumotlarni to'ldirish foydalanuvchining qanchadan-qancha vaqtini tejash imkonini beradi. Shu bois, oliy o'quv yurtlarida matematika va informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga veb texnologiyalar alohida kurs sifatida o'qitila boshlandi.

Dastlabki veb-sahifalar juda sodda tuzilishga ega bo'lib, ular matnni formatlash va giperko'rsatkichlardan tarkib topgan edi. Veb texnologiyalar rivojlanishi natijasida veb-sahifalar tarkibiga Plug-in deb ataluvchi dasturlar yoki dasturiy majmualar joylashtirila boshlandi, natijada veb sahifalarga "interaktiv" xususiyati berildi. Veb texnologiyalarning rivojlanishining oxirgi natijalaridan biri bu - skript tillaridir (Script Language). Ularni veb-dasturlash tarkibida ishlatishdan asosiy maqsad shuki, veb-sahifa joylashgan veb-serverning ish jarayonini engillashtirish, har xil turdagi mayda ishlarni amalga oshirish uchun ham veb-serverning ishlash jarayonini faollashtirmasdan, bunday masalalarni foydalanuvchi kompyuterining (klient-kompyuterning) o'zida amalga oshirishdir. Veb texnologiyasining oxirgi erishgan yutuqlaridan biri dinamik veb-sahifalardir. Dinamik veb-sahifalar CGI dasturlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, CGI dasturlar serverda joylashgan va server imkoniyatlarini to'laqonli ravishda ishlatuvchi dasturlardir. Ular serverga kelgan so'rovlarni qayta ishlaydi va qayta ishlash natijasida yangi veb-sahifa hosil bo'ladi.

Hozirgi internet texnologiyalari rivojlangan bir kunda veb-sahifalar yaratish, ularni ta'lim tizimiga tatbiq etish, ulardan ijobiy ma'noda to'la foydalanish muhim ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, ya'ni veb-sahifalar tayyorlashda amaliyotda bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturlarning barchasi o'z o'rnida muhim ahamiyatga ega. Bunga misol sifatida veb-sahifalar uchun dizaynlar tayyorlash uchun "Adobe Photoshop" dasturining o'z o'rnini bo'lsa, ya'ni rasmlarni fotomontaj qilishda, veb-sahifamizni tashqi ko'rinishini o'ziga xos qilib tayyorlashda, foydalanuvchilarni o'ziga jalb qila oladigan veb-sahifa yaratishda ushbu dasturning oldiga tushadigani yo'q, deb aytish mumkin. Ikki o'lchovli grafikada esa veb-sahifalar uchun turli xildagi animatsion harakatlar (effektlar) tayyorlashda foydalanuvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishda, ayniqsa reklama roliklar yaratishda fikrni tezkor uqtirish vositasi sifatida "Macromedia Flash" dasturining o'z o'rnini bor. Endi esa bevosita veb sahifalarni, ya'ni HTML yaratishga kelsak, bu borada ham bir qancha dasturiy vositalar yaratilgan bo'lib, bulardan hozirgi kunda veb-sahifa yaratuvchilari to'la

to'kis foydalanishmoqda. Bunday dasturlar majmuasiga "Microsoft Office" dasturlar paketi tarkibiga kiruvchi "Front Page" dasturi, Macro media oilasiga mansub "Macromedia Dreamwiever" va "RNR" dasturlarini oldiga tushadigani topilmaydi. Bulardan tashqari ham bir qancha veb-sahifalar yarata oladigan dasturlarni sanab o'tish mumkin, lekin bularning barchasi ishlatilishi va foydalanuvchi uchun ayniqsa yangi o'rganuvchilar soddaligi bilan ajralib tursada, lekin professional veb-sahifalar yaratish borasida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "RNR" dasturdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirda aksariyat yirik dasturchilar yoki dasturchilar guruhi quyidagi veb-dasturlash resurs va ilovalariga tayangan holda o'z veb-sahifalarini yaratmoqdalar: HTML – hujjatning strukturasi, hujjat tanasining konteynerlarlari, grafika, HTMLda jadval, HTML – shakllar, freymmlar, JavaScriptning qo'llanilishi, brauzer darchasi xususiyatini dasturlash, shakllarni dasturlash, grafiklarni dasturlash, gipermatn o'tishlarni dasturlash, kadr orqasida dasturlash, CSSning qo'llanilishi, blokli va satrli elementlar, rang va shrift, matn va ruyxatlar, pozitsiyalashtirish, XML – hujjatlarni ko'rish, XSL stilli jadvallari. Veb-serverlar ishini va ularda ishlovchi dasturlash, PHP veb dasturlash tilini, Java XML – qayta ishlovchilardan foydalanish, DOM mos analizatorlar.

Ushbu ilovalarning deyarli barchasi veb-dasturlash jarayonini engillashtiradi.

Bir necha yil avval ko'plab veb-sahifalar yaratuvchilari statistik ma'lumotlarga qo'llar edilar. Veb-sahifalar html – fayllardan tashkil topib, foydalanuvchi o'z brauzerini ishga yuklar va o'qiy olar edi. Sekin-asta veb-tarmog'ida foydalanuvchilar bilan aloqa uchun shakllar yaratilib, qidiruv funktsiyalari hamda o'zaro axborot almashinish imkoniyatlari yaratila boshlandi, lekin sahifaga murojaat qiluvchiga statistik ma'lumotlar avvalgidek ko'rinishda ifodalab berildi. Eng e'tiborli tomoni tarmoq magazinlari paydo bo'lib, oldi-sotdi ishlarini shu tarmoq asosida amalga oshiruvchi dasturlar ishlab chiqarila boshlandi.

Butun jahon tarmog'i shartlarida kompilyatsiya va obyekt kodini hosil qilish ma'noga ega bo'lmay qoladi, chunki kompilyatsiya jarayonida hosil bo'lgan kodni qanday hisoblash tizimida bajarish kerakligini oldindan bilib bo'lmaydi. Shu sababga ko'ra, server obyekt kodi yoki assembler kodini tarmoq bo'yicha uzata olmaydi. Shuning uchun internet tarmog'ida dasturlashtirishning asosiy xususiyati bo'lib, interpretatsiyalanuvchi tillarni dasturlashtirishning asosiy vositalari sifatida ishlatilishi hisoblanadi. Server mijozning hisoblash tizimi arxitekturasida qanday bo'lishini oldindan bilmagani sababli dastur kodini interpretatsiya qiladi (obyekt kodini emas). Shunda server har doim faqat bitta usul bilan dastur kodini tayyorlaydi. Bu holatda internetga mijozlar yuklanishi oshib ketishi mumkin. Masalani biroz osonlashtirish mumkin: internet-server joriy dasturning oxirgi darajadagi kodini emas, balki mijoz tomonidan bajarilishga mo'ljallangan past darajadagi oraliq kodni hosil qiladi. Bunda ma'lumot almashishda yana ikkita dastur ishtirok etadi: server tomonidagi kompilyator (to'g'rirog'i translyator), dastur joriy kodini yuqori darajadagi oraliq kodga translyatsiya qilib beradi hamda mijoz tomonidagi interpretator, mijozning hisoblash tizimi arxitekturasiga bog'liq bo'lmagan holda oraliq kodning bajarilishini ta'minlaydi.

Global tarmoqda ko'pgina dasturlarni ishlatishda aynan shu sxema ishlaydi. Bu sxemani amalga oshirish uchun ko'p texnik va til vositalari mavjud. Ularning ichida HTMLning o'z o'рни mavjud. WWWda turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga etib borish va bu ma'lumotni ko'rish, saqlash, chop etish va boshqa ishlarni bajarish mumkin. WWWda yo'llar sifatida telefon tarmoqlari ishlatiladi. Internetda asosiy til sifatida HTML tili ishlatiladi. HTML tili dasturlashtirish tillari safiga kirmaydi. U gipermatnni belgilash tilidir. Uni o'zining strukturasi ega. Keyinchalik internet uchun turli dasturlashtirish tillari ishlab chiqildi. Ular asosan skriptlar (script) va stsenariylar tuzishga hamda mijoz-server texnologiyasida ishlashga asoslangan dinamik saytlar tuzish imkonini beradi. Umuman olganda, ular HTML tili strukturasi ichida skriptlarni ishlatadi. Buni tushunish uchun alohida protsedura yoki funktsiyani chaqirib ishlatish sifatida qarash mumkin. HTML tilining o'zida protsedura va funktsiya tushunchalari mavjud emas.

Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li, bu, ularni Internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Interaktiv davlat xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga AKTlaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) – tegishli axborot tizimlari, shu jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;

- bir tomonlama o'zaro hamkorlik – elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;

- ikki tomonlama axborot ayirboshlash – so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);

- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida 384 turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatiladi. Hozirda interaktiv veb-saytlar asosida yaratilgan tarmoq, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar tarkibi tor ma'noda faqatgina ishtirokchilardan iborat bo'lgan va ular orasida muloqot o'rnatuvchi, ko'p sonli foydalanuvchilardir, keng ma'noda esa, korxona va muassasalar, davlat va Hukumat foydalanuvchilar tushuniladi.

Fuqarolarga pensiya ta'minoti borasida yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator davlat interaktiv xizmatlari amaliyotga joriy etildi:

1. Pensiya jamg'armasi tizimida "WS Personal" dasturi ishlab chiqilgan, ushbu dastur Pensiya jamg'armasining ichki dasturi hisoblanadi. Bunda asosan

pensiya ta'minotiga oid normativ-huquqiy baza, xodimlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi, xodimlarning bilim saviyasini oshirish test moduli va ijro intizomini tartibga soluvchi modul va so'rov modullaridan iborat majmua hisoblanadi.

2. Pensiya miqdorlari oshirilganda pensionerlarning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlarini yuborish tizimi joriy etildi. Pensionerlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida mobil telefon yordamida 10711 raqamiga SMS (\*Hisob raqami\*1# (\*RU# rus tilida)) so'rovi yuborish orqali pensiya miqdori va to'lov muddati, pensiyalarning to'langanligi, tayinlanganligi, pensiya muddati to'g'risida batafsil ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'yicha interaktiv xizmat amaliyotga tatbiq etildi.

3. Internet tizimi ommaviylashib borayotgan bugungi kunda pensionerlar davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni bevosita Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti orqali olishlari mumkin. Saytga shuningdek, "pensiya kalkulyatori" ruknida fuqarolar o'zlarining dastlabki pensiya miqdorlarini hisoblab chiqishlari va bu bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

4. Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan "Ishonch telefoni" 1140 - qisqa raqamli orqali xizmat joriy qilindi.

Xulosa qilib aytganda, pensiya ta'minoti tizimida AKTning faol joriy etilishi pensiya va nafaqalarning to'g'ri va aniq hisob-kitob qilinishini, davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanilishini, o'zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi.

### **1.3. Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimining xususiyatlari, turlari va huquqiy-me'yoriy asoslari**

So'nggi yillarda davlat pensiya ta'minotining yagona axborot tizimini joriy etish bo'yicha bir qancha salmoqli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2015-yil 19-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2015-

2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2302-sonli qarorini ijro etish yuzasidan qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan:

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oladigan 3 millondan ziyod fuqarolar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini ifodalaydigan, uning vositasida pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisob-kitob qilish, qayta hisob-kitob qilish, shuningdek, har oyda tayinlash jarayonlarini avtomatlashtirish ta'minlanadigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi – "Pensiya" dasturiy majmui joriy etildi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Pensiya" dasturiy majmui negizida uni yanada takomillashtirish va funktsional kengaytirish yo'li bilan keksa kishilar uchun pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini nazarda tutuvchi, ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog'oz shaklida olishni istisno etuvchi, shuningdek, pensiyalar va nafaqalar to'lashga mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini ("Nafaqa" yagona axborot tizimi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi;

– 2015-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish reja-jadvali tasdiqlandi.

Ushbu qarorga muvofiq<sup>15</sup>:

– Vazirliklar va idoralarga tasdiqlangan 2015-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini

---

<sup>15</sup><http://www.norma.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

joriy etish reja-jadvali to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etish topshirildi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga "Nafaqa" yagona axborot tizimini joriy etish tugallangandan keyin 2018-yil mobaynida "Nafaqa" yagona axborot tizimi faoliyat ko'rsatishini yanada qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan server asbob-uskunalarini xarid qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tender savdolari o'tkazish topshirildi.

Pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsiya dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. "Pensiya" dasturiy majmui shulardan biridir. Mazkur majmua O'zbekistonning yirik kompaniyalardan biri – "Fido-biznes" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda yaratildi. Tizimni ishlab chiqish 2010-yilning mayida boshlangan edi. Bir yildan so'ng bu jarayon Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar va viloyatidagi tuman bo'limlarida davom ettirildi. 2012-yilning birinchi choragida dasturiy majmui O'zbekistonning barcha hududlarida ishga tushirildi. Ayni paytda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar shakllantirilgan yagona elektron axborot bazasini o'z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to'lash joriy etilgan dasturiy majmua orqali amalga oshirilmoqda.

U ishonchli himoya qilingan va markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarni ishonchli, to'liq hamda dolzarb axborot bilan o'z vaqtida ta'minlash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham, jumladan, AQShda ham pensiya tizimini boshqarish, pensiya imtiyozlarini belgilash, pensiya tizimida investitsiyalarni boshqarish va boshqalar maxsus kompyuter dasturlari asosida amalga oshiriladi<sup>16</sup>.

---

<sup>16</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29; 85; 111.

“Pensiya” dasturiy majmui pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning hajmini hisoblash, pensiya hamda nafaqalarni qonunchilikka asosan qayta hisob-kitob qilish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo’ljallangan. Mazkur tizim Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limlarida pensionerlarni ro’yxatga olish, ular haqidagi axborotni saqlash, qayta ishlash va berish, qayta ishlanayotgan axborotning tezkorligi va ishonchliligini oshirish uchun pensionerlar to’g’risida markazlashtirilgan yagona ma’lumotlar bazasini yaratishga ko’maklashadi. Bundan tashqari, dasturiy mahsulot to’lov hujjatlarini (pensiya va nafaqalar to’lash uchun qaydnomalar) shakllantirish, elektron to’lov hujjatlarini to’lovlar uchun mas’ul tegishli tashkilotlarga jo’natish imkonini beradi. “Pensiya” dasturiy majmuidan foydalanish hisobdorlik shakllarini Pensiya jamg’armasi bo’linmalari darajasida olish, fuqarolar pensiya ta’minoti tizimining faoliyat ko’rsatkichlarini sifat jihatidan yaxshilash, pensiya va nafaqalarni turlari bo’yicha moliyalashtirishni hisobga olish hamda monitoring qilishga yordam beradi.

“Pensiya” dasturiy majmui Pensiya jamg’armasining 196 tuman va shahar bo’limlarida mahalliy hisoblash tarmog’ini joriy etish, uni Moliya vazirligi korporativ tarmog’iga ulash, pensionerlar haqidagi shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi saqlangan holda ishlarni tezlashtirishga yordam berdi<sup>17</sup>. Ushbu dastur yordamida xodimlar faoliyatidagi xatolarni tez aniqlash, pensiyalarni tayinlash va to’lashda yomon niyatli odamlar xatti-harakatining oldini olish mumkin. Shu bilan birga, dasturda davlat pensiya va nafaqalarini tayinlash, qayta hisob-kitob qilish va to’lash bo’yicha daromadlar hamda xarajatlarning kunlik balansini tuzish, Pensiya jamg’armasi mablag’larining sarflanishini barcha joylarda tezkor qayd etish, markazlashtirilgan ma’muriy nazoratni amalga oshirish imkoni ham bor.

Ta’kidlash kerakki, “Pensiya” dasturiy majmui orqali pensionerlarga interfaol xizmatlarni ko’rsatish kengaytirildi. Xususan, ular hisoblangan pensiya hajmi haqidagi ko’chirmani elektron pochta, mobil telefonda qisqa xabar orqali olishlari mumkin. Bundan tashqari, telefonga pensiyalar oshgani haqidagi ma’lumotlar ham kelib tushadi.

---

<sup>17</sup> <http://uza.uz> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Pensionerlarga pensiya ta'minotidagi oxirgi o'zgarishlar va yangiliklar haqida ma'lum qilinadi, mutaxassisni "shoshilinch liniya" va saytdagi opsiya orqali chaqirish imkoni ham mavjud (pensionerlarga maslahat berish va ularning savol hamda e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun). Pensionerlar interfaol xizmatlar afzalligini ilk bor 2012-yil avgustda his etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 5-iyulda imzolangan "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq pensiyalar miqdorining 1,15 barobar oshirilishi, shuningdek, pensiyalari miqdori haqidagi ma'lumotlar telefon xabarlar orqali ularning mobil telefonlariga jo'natildi<sup>18</sup>.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "Pensiya" dasturiy majmuining boshqa elektron ma'lumotlar bazalari bilan hamkorlik qilish ustida ish olib bormoqda. Masalan, byudjetlar kesimida Pensiya jamg'armasi daromad va xarajatlarini shakllantirish hamda ro'yxatini jo'natish bo'yicha Moliya vazirligi G'aznachiligining ma'lumotlar bazasi<sup>19</sup>, on-line rejimida pensiya va nafaqalarni to'lash uchun har oylik elektron qaydnomalarni shakllantirish hamda jo'natish bo'yicha "O'zbekiston pochta" ochiq aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlar bazasi shular jumlasidandir<sup>20</sup>. Pensiya va nafaqalarni to'lash uchun har oylik elektron qaydnomalarni shakllantirish hamda jo'natish bo'yicha davlat aksiyadorlik tijorat "Xalq banki" va tijorat banklari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda, yaqin kelajakda bu ro'yxatga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasini ham kiritish mo'ljallanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashabbusi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining tashkiliy hamda moliyaviy ko'magi, shuningdek, "Mobi Tel Inform" mas'uliyati cheklangan

<sup>18</sup> <http://uza.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>19</sup> Po'latov D., Nurmuxamedova V. G'aznachilik / Darslik. – Toshkent: "Sano-standart", 2014. 15-21-b.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 13-martdagi "Pensiya va nafaqalarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori ko'ra Xalq banki butun respublika bo'yicha pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha yagona vakolatli bank etib belgilandi. "O'zbekiston pochta" AJ ushbu funksiyani bosqichma-bosqich banking maxsus bo'limlariga topshiradi.

jamiyatning tashkiliy-texnik ko'magi asosida 2017-yil 1-fevraldan Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni oluvchi shaxslarga "SMS-Pensiya" interaktiv xizmati taqdim etildi. Ushbu interaktiv xizmatining tashkiliy-texnik ijrochisi bo'lib "Mobi Tel Inform" mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi. Mazkur interaktiv xizmat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi "Keksalarni e'zozlash yili Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2302-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 1-martdagi 165-F-sonli Farmoyishi asosida ishlab chiqilgan.

"SMS-Pensiya" xizmati davlat pensiya ta'minoti sohasidagi axborot beruvchi va xabardor qiluvchi SMS-xabarlarni shakllantirish hamda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarga jo'natish uchun mo'ljallangan.

"SMS-Pensiya" xizmatini joriy etilishining asosiy maqsadi davlat pensiya ta'minoti sohasida pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarning so'rovlariga e'tiborni kuchaytirish hamda ularga bepul SMS-xabarlarni jo'natish bo'yicha xizmatni joriy etish orqali tezkorlik bilan javob berish hisoblanadi.

Ushbu tizimda shaxsiy hisob raqamga mobil telefon raqamning biriktirilishi faqat ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Foydalanuvchining Pensiya jamg'armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo'lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo'limiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishi va tegishli arizani to'ldirishi orqali amalga oshiriladi;

2. Foydalanuvchi tomonidan mustaqil tarzda o'zining mobil telefon raqami orqali tegishli belgi, raqam va harflardan iborat SMS-so'rovni 10711 qisqa raqamga yuborish orqali amalga oshiriladi.

Tizimda ro'yxatdan o'tish orqali foydalanuvchi o'zining mobil telefon raqamiga Pensiya jamg'armasining barcha turdagi SMS-xabarlarini olishga roziligini tasdiqlaydi. Tizimda foydalanuvchi mobil telefon raqamining ro'yxatdan o'tishi 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam va harflardan iborat SMS-so'rovni yuborish orqali amalga oshiriladi: \*7000007\*1\*UZ#. Bu erda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 1 – ro'yxatdan o'tish belgisi; UZ yoki RU – foydalanuvchi

ma'lumotlarni qaysi tilda olishini bildiruvchi belgi. Agar til ko'rsatib o'tilmasa, unda ma'lumotlar o'zbek tilida yuboriladi. Tizimda foydalanuvchining muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tishi natijasida uning mobil telefon raqamiga ro'yxatdan o'tishda tanlagan tilida SMS-xabari keladi.

Tizimda foydalanuvchining qayta ro'yxatdan o'tishi faqat bitta yo'l bilan amalga oshiriladi. Foydalanuvchining Pensiya jamg'armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo'lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo'limiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishi va tegishli arizani to'ldirishi orqali. Pensiya jamg'armasining tegishli tuman (shahar) bo'limi inspektori 1 ish kuni davomida tizimdagi shaxsiy hisob raqamga yangi mobil telefon raqamini biriktirishi shart deb belgilangan.

SMS-xabar turidan kelib chiqib, foydalanuvchi tomonidan "SMS-Pensiya" xizmatidan foydalanishi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Tizimda shaxsiy hisob raqamga tegishli operatsiyalar amalga oshirilganda SMS-xabarlarning avtomatik tarzda shakllanishi va ularning foydalanuvchiga yuborilishi (ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga) orqali;

2. SMS-xabarlarni olish uchun individual SMS-so'rovlarni jo'natish (ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga) orqali.

Ma'lum SMS-xabarlarni olish 10711 qisqa raqamga quyidagi raqamdan iborat individual SMS-so'rovni yuborish orali amalga oshiriladi: \*7000007\*61#. Bu erda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 61- SMSning tizimdagi kodi. Tizimda foydalanuvchi har bir shaxsiy hisob raqami bo'yicha "SMS-Pensiya" xizmatini o'chirishi mumkin. Foydalanuvchilarning individual SMS-so'rovlariga asosan yuboriladigan ma'lum SMS-xabarlar tizimda 3 oy davomida saqlanadi.

Foydalanuvchi SMS-xabarni o'chirib yuborgan, mobil aloqa vositasini o'zgartirgan taqdirda, u 10711 qisqa raqamga quyidagi raqamdan iborat individual SMS-so'rovni yuborish orqali o'tgan davrga tegishli SMS-xabarni olishi mumkin: \*7000007\*61\*112016#. Bu erda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 61 – SMSning tizimdagi kodi, 112016 – talab qilingan (o'tgan) davr uchun SMS-xabar.

Muxtasar aytganda, pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Pensiya" dasturiy majmui shulardan biridir. Ayni vaqtda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar shakllantirilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to'lash joriy etilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

### **I bob bo'yicha xulosa**

– O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi milliy pensiya ta'minoti tizimida yangi sahifa ochdi. Boshqa sohalardagi kabi pensiya ta'minoti tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, sifat o'zgarishlariga erishildi. Natijada, milliy pensiya tizimi takomillashib, bu holat pensionerlar va nafaqa oluvchilarning turmush farovonligini oshirish hamda pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda;

– pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Pensiya" dasturiy majmui shulardan biridir. Ayni vaqtda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar shakllantirilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to'lash joriy etilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda;

– pensiya ta'minoti tizimida AKTlarining faol joriy etilishi pensiya va nafaqalarning to'g'ri va aniq hisob-kitob qilinishini, davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanilishini, o'zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi.

## **II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimi holatining tahlili**

Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Shuningdek, pensiya qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Xususan:

- yoshidan qat'iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati (kon sanoatidagi etakchi kasb egalari, bevosita erosti va ochiq kon ishlarida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning xizmat muddati – erkaklarda 20 yil, ayollarda 15 yil bo'lganda);

- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati (erosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, tsirkalar va kontsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda);

- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati (urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, qishloq xo'jaligi xodimlarining ayrim toifalari, aviatsiya muhandis texniklari tarkibining xodimlari, shahar yo'lovchilar tashish transporti

– haydovchilari, besh va undan ortiq farzand tuqqan hamda ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar, ijtimoiy ta'minot tizimining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan xodimlar).

O'zbekistonda nogironlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy ahvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

- mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda;
- umumiy kasallik (mehnat bilan bog'liq bo'lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki avariylar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi mehnat vazifasini bajarishda, korxona, tashkilot hududida sodir bo'lsa, nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Marhumning qaramog'ida turmagan ota-

onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar.

Pensiyalar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanib, uning miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdori, ish staji uchun pensiyaning oshirilishi va pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bilan pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilangan:

- yoshga doir to'liq pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55,0 %, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida;

- 2-guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55,0 % , lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida;

- 3-guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30,0 %, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50,0 % miqdorida;

- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30,0 %, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50,0 % miqdorida;

- ota-onasidan judo bo'lgan bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30,0 %, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida.

Ta'kidlash joizki, to'liq davlat ta'minotida turgan etim bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi eng kam oylik ish haqining 100,0 %, ota-

onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50,0 % miqdorida pensiya to'lanadi.

“Sahovat” uylarida yashovchi yolg'iz qariyalar va nogironlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensianing kamida 10,0 %, urush nogironlariga esa kamida 20,0 foizi to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda qabul qilingan “Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni mamlakat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali qo'llab-quvvatlashdan tashqari, ular uchun qator imtiyozlar ham joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, davlat pensiyasi tayinlangan I va II guruh nogironlari, yolg'iz pensionerlar, boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar, shuningdek, shaxsiy pensionerlar yer solig'i to'lashdan ozod qilinadilar. Bundan tashqari, I va II guruh nogironlari va pensionerlar qonunchilikda belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida mulk solig'i to'lashdan ozod etilganlar. Yolg'iz pensionerlar, shu jumladan nogironlar, shaxsiy pensionerlar har oyda kommunal to'lovlari bo'yicha imtiyozlar o'rniga eng kam ish haqining 45,0 foiz miqdorida kompensatsiya to'lovlarini oladilar. Ayrim toifadagi fuqarolar pensiyalariga davlat oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun eng kam ish haqining 0,5 barobaridan 3,0 barobarigacha har oylik ustamalar belgilangan.

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24.8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir.

Aksincha fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (7.5%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

## 2.1-jadval

### 2005-2016 yillarda yagona ijtimoiy to'lov va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi<sup>21</sup> (foiz hisobida)

| Ko'rsatkichlar nomi                                | Yillar |      |      |      |      |      |      |      |      |      |                           |
|----------------------------------------------------|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|---------------------------|
|                                                    | 2005   | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015-2016                 |
| Yagona ijtimoiy to'lov                             | 31     | 25   | 24   | 24   | 24   | 25   | 25   | 25   | 25   | 25   | 25<br>(15)                |
| Shu jumladan, Pensiya jamg'armasiga                | 30     | 24,2 | 23,5 | 23,5 | 23,6 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8<br>(14,8)            |
| Majburiy sug'urta badali                           | 2,5    | 2,5  | 2,5  | 2,5  | 3,5  | 4    | 4,5  | 5,5  | 6    | 6,5  | 7<br>(7,5 <sup>22</sup> ) |
| Sotilgan mahsulotdan Pensiya jamg'armasiga ajratma | 0,7    | 0,7  | 0,7  | 1    | 1    | 1,5  | 1,5  | 1,6  | 1,6  | 1,6  | 1,6                       |

Hozirgi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbai bo'lib, ish beruvchilarning umumiy ish haqi fondidan hisoblab beradigan yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda ham aynan yagona ijtimoiy to'lov stavkasining amaldagi holati tahlili keltirilgan. Keltirilgan 2.2-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2005-yilda yagona ijtimoiy to'lov tarkibida Pensiya jamg'armasiga ajratmalar 30 foizni va majburiy sug'urta badali 2,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilga kelib yagona ijtimoiy to'lov tarkibida Pensiya jamg'armasiga ish beruvchilar tomonidan 24,8

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

<sup>22</sup> 2016-yil uchun majburiy sug'urta badali stavkasi. 2017-yilda ushbu stavka 8 % qilib belgilangan.

foizni, ishlovchilar tomonidan majburiy sugʻurta badallari salmogʻi esa 7 foizni tashkil etmoqda.

## 2.2-jadval

### Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining daromadlari ijrosi<sup>23</sup>

| Koʻrsatkichlar                                                    | 2012-yil        |                                                 | 2013-yil        |                                                 | 2014-yil        |                                                 | 2015-yil        |                                                 | 2016-yil        |                                                 |
|-------------------------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------|
|                                                                   | mlrd.<br>soʻmda | jami<br>daromad-<br>larga<br>nisbatan<br>foizda | mlrd.<br>soʻmda | jami<br>daromad-<br>larga<br>nisbatan<br>foizda | mlrd.<br>soʻmda | jami<br>daromad-<br>larga<br>nisbatan<br>foizda | mlrd.<br>soʻmda | jami<br>daromad-<br>larga<br>nisbatan<br>foizda | mlrd.<br>soʻmda | jami<br>daromad-<br>larga<br>nisbatan<br>foizda |
| <b>Jami daromadlar</b>                                            | <b>8065,4</b>   | <b>100,0</b>                                    | <b>10302,1</b>  | <b>100,0</b>                                    | <b>13013,7</b>  | <b>100,0</b>                                    | <b>16557,0</b>  | <b>100,0</b>                                    | <b>18113,3</b>  | <b>100,0</b>                                    |
| Yil boshida kutilayotgan qoldiq                                   | 280,1           | 3,5                                             | 602,2           | 5,8                                             | 1067,3          | 8,2                                             | 2592,0          | 15,6                                            | 2568,3          | 14,2                                            |
| Daromadlar                                                        | 7785,3          | 96,5                                            | 9699,9          | 94,2                                            | 11946,4         | 91,8                                            | 13965,0         | 84,3                                            | 15545,0         | 85,8                                            |
| Shu jumladan:                                                     |                 |                                                 |                 |                                                 |                 |                                                 |                 |                                                 |                 |                                                 |
| Mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy toʻlovdan ajratmalar | 4799,2          | 59,5                                            | 5907,4          | 57,3                                            | 7299,5          | 56,1                                            | 8324,2          | 59,6                                            | 9474,0          | 52,3                                            |
| Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sugʻurta badali          | 1110,2          | 13,8                                            | 1482,7          | 14,4                                            | 1877,2          | 14,4                                            | 2463,8          | 17,6                                            | 3235,0          | 17,9                                            |
| Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar   | 1401,5          | 17,4                                            | 1591,3          | 15,4                                            | 1933,0          | 14,9                                            | 2063,8          | 14,7                                            | 1527,0          | 8,4                                             |
| Soliqsiz tushumlar                                                | -               | -                                               | -               | -                                               | -               | -                                               | -               | -                                               | 18,0            | 0,1                                             |
| Boshqa daromadlar                                                 | 474,4           | 5,9                                             | 718,5           | 7,0                                             | 836,7           | 6,4                                             | 1113,1          | 8,0                                             | 1291,0          | 7,1                                             |

Yana bir oʻzgarish, 2015-yilda mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda fermer xoʻjaliklari uchun yagona ijtimoiy toʻlov stavkasi 25 foizdan 15 foizga tushurildi, buning 14,8 foizi ham Pensiya jamgʻarmasiga borib tushadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining mablagʻlaridan:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini toʻlash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini toʻlash;

<sup>23</sup> Jadval Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr PQ-2099-sonli, 2014-yil 4-dekabr PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabr PQ-2455-sonli Qarorlari asosida asosida magistrant tomonidan tuzildi.

– davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;

– dafn etish marosimi uchun nafaqalar;

– belgilangan tartibda buyruqadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

Bugungi kunda respublikamizda jami 3 milliondan ortiq pensiya oluvchilar mavjud bo'lib, respublikamiz aholisining 9,9 foizini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi. 2.3-jadvalda Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2012-2016-yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan.

## 2.3-jadval

### O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimi<sup>24</sup>

| t/r | Ko'rsatkichlar                                                                                                     | 2012-yil      |                                    | 2013-yil       |                                    | 2014-yil       |                                    | 2015-yil       |                                    | 2016-yi        |                                    |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|------------------------------------|----------------|------------------------------------|----------------|------------------------------------|----------------|------------------------------------|----------------|------------------------------------|
|     |                                                                                                                    | mlrd. so'mda  | jami xarajat larga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajat larga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajat larga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajat larga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajat larga nisbatan foizda |
|     | <b>Xarajatlar jami</b>                                                                                             | <b>8065,4</b> | <b>100,0</b>                       | <b>10302,1</b> | <b>100,0</b>                       | <b>13013,7</b> | <b>100,0</b>                       | <b>16557,0</b> | <b>100,0</b>                       | <b>18113,3</b> | <b>100,0</b>                       |
| 1.  | Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari                                                                    | 7246,0        | 89,8                               | 9097,9         | 88,3                               | 11191,9        | 86,0                               | 12838,1        | 77,5                               | 14779,6        | 81,6                               |
| 2.  | Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari                                                                      | 290,9         | 3,6                                | 317,4          | 3,1                                | 426,6          | 3,3                                | 474,8          | 2,8                                | 484,3          | 2,7                                |
| 3.  | Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar | 12,8          | 0,2                                | 20,5           | 0,2                                | 29,1           | 0,2                                | 105,2          | 0,6                                | 152,1          | 0,8                                |
| 4.  | Boshqa xarajatlar                                                                                                  | 1,8           | 0,02                               | 2,1            | 0,02                               | 2,4            | 0,02                               | 2,8            | 0,02                               | 3,0            | 0,02                               |
| 6.  | Yil oxirida qoldiq mablag'lar                                                                                      | 513,9         | 6,4                                | 864,2          | 8,4                                | 1363,7         | 10,5                               | 3136,1         | 18,9                               | 2694,3         | 14,9                               |

Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o'zgarish xususiyatiga egadir. Aksincha

<sup>24</sup> Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabrda PQ-2099-sonli, 2014-yil 14-dekabrda PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli Qarorlari asosida asosida magistrant tomonidan tuzildi.

Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2012-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 6,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 18,9 foizni tashkil etmoqda, 2016-yilda esa 14,9 foizni tashkil qilgan. Bu esa oxirgi yillarda Hukumatimiz tomonidan davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say-xarakatlari natijasidir. Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar ulushi yildan yilga kamayish tendentsiyasiga ega. Buning asosiy sababi pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan bir qator nafaqa va to'lovlarning davlat byudjetiga o'tkazilishi Pensiya jamg'armasiga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan bosimni birmuncha kamaytirdi.

#### 2.4-jadval

#### **Pensiya jamg'armasining Toshkent viloyati Bo'ka tumani bo'limi tomonidan pensiya va nafaqa oluvchilar to'g'risida ma'lumot<sup>25</sup>**

| №  | Ko'rsatkichlar                        | 2016-yil 1-yanvar holatiga |        |
|----|---------------------------------------|----------------------------|--------|
|    |                                       | soni                       | ulushi |
| 1. | Jami pensiyalar, sh.j.                | 9836                       | 100,0  |
| 2. | Yoshga doir pensiyalar                | 7914                       | 80,5   |
| 3. | Nogironlik pensiyalari                | 1236                       | 12,6   |
| 4. | Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari | 686                        | 7,0    |

Tahlil obyektimiz bo'lmish Toshkent viloyati Bo'ka tumanida bugungi kunda Pensiya jamg'armasi hisobidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni 2016-yilning 1-yanvar holatida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga (sobiq Ittifoq davrida 28.04.1990-yilda qabul qilingan) muvofiq pensiya oluvchilar, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan

<sup>25</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Toshkent viloyati Bo'ka tumani bo'limi ma'lumotlari asosida asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq ijtimoiy nafaqa oluvchilar quyidagilarni tashkil etadi (2.4-jadval).

Toshkent viloyati Bo’ka tumanida 9836 kishini tashkil etib, uning asosiy qismi (80,5 %) yoshga doir pensiya oluvchilar hissasiga to’g’ri kelmoqda. 12,5 foizi nogironlik pensiyalarini va 7,0 boquvchisini yo’qotganlik pensiyalari ulushiga to’g’ri keladi.

2.5-jadvalda pensiya va nafaqalar turi hamda toifalari, hisobot davrida hisobga olingan pensiya va nafaqalar va hisobot davrida hisobdan chiqarilgan pensiya va nafaqalar to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Jadval ma’lumotlari davlatimiz ijtimoiy siyosati negizida qariya va keksa yoshdagi aholi, boquvchisini yo’qotgan oilalar, nogiron fuqarolarni ijtimoiy himoyasi va ta’minotini amalga oshirish uchun katta miqdordagi davlat sarflari mavjudligidan dalolat bermoqda.

2016-yil 1-yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchi con 9836 nafarni tashkil qilib, 2015-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 102,5 foizga o’sgan.

Xullas, O’zbekistonda amalda bo’lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to’lovlari va boshqa to’lovlarni moliyalashtirish Pesiya jamg’armasi mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Pensiya jamg’armasi mablag’lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko’rsatilgan turdagi pensiya va nafaqalarni to’lash uchun sarflanadi:

a) ishlamaydigan fuqarolarga: davlat pensiyalarining barcha turlari; dafn marosimi uchun nafaqalar; davlat pensiya ta’minotiga huquqi bo’lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar; qonun hujjatlariga muvofiq Jamg’arma mablag’laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to’lovlari va boshqa to’lovlar;

b) ishlaydigan fuqarolarga: davlat pensiyalarining barcha turlari; dafn marosimi uchun nafaqalar; 16 yoshgacha bo’lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo’shimcha dam olish kuni uchun to’lovlar; qonun hujjatlariga muvofiq Jamg’arma mablag’laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to’lovlari va boshqa to’lovlar.

2.5-jadval

**Pensiya jamg'armasi Toshkent viloyati Bo'ka tumani tomonidan 2016-yil 1-yanvar holatida tayinlangan pensiyalar va nafaqalar to'g'risida ma'lumot<sup>26</sup>**

| t/r                                                                                                         | Pensiya va nafaqalar turi hamda toifalari             | 2016-yil 1-yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchi con (kishi) | Hisobot davrida hisobga olingan pensiya va nafaqalar |                   |                                |                                                                |                              | Qo'shimc ha hujjatga asosan qayta hisobland i | Hisobot davrida hisobdan chiqarilgan pensiya va nafaqalar |               |                              |                                                             |                            | 2015 yil 1 yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchi con (kishi) |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|-------------------|--------------------------------|----------------------------------------------------------------|------------------------------|-----------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|---------------|------------------------------|-------------------------------------------------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                             |                                                       |                                                                  | Umumiy soni                                          | Shu jumladan:     |                                |                                                                |                              |                                               | Umumiy soni                                               | Shu jumladan: |                              |                                                             |                            |                                                                  |
|                                                                                                             |                                                       |                                                                  |                                                      | Yangi tayinlan di | Boshqa hudud-dan ko'chib keldi | Nogiron guruhi va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tiklandi | Boshqa tur pen-siyadan o'tdi |                                               |                                                           | Vafot etdi    | Boshqa hududga ko'chib ketdi | Nogiron, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi muddati tugadi | Boshqa tur pensiyaga o'tdi |                                                                  |
| 1.                                                                                                          | Jami pensiya oluvchilar soni                          | 9836                                                             | 1038                                                 | 438               | 7                              | 593                                                            | 0                            | 0                                             | 1279                                                      | 232           | 52                           | 976                                                         | 19                         | 9595                                                             |
| O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq:        |                                                       |                                                                  |                                                      |                   |                                |                                                                |                              |                                               |                                                           |               |                              |                                                             |                            |                                                                  |
| 2.                                                                                                          | Yoshga doir pensiya-jami                              | 7914                                                             | 362                                                  | 359               | 3                              |                                                                |                              |                                               | 255                                                       | 209           | 41                           | 2                                                           | 3                          | 8021                                                             |
| 3.                                                                                                          | Nogironlik pensiyalari - jami                         | 1236                                                             | 365                                                  | 37                | 0                              | 328                                                            | 0                            |                                               | 688                                                       | 23            | 8                            | 641                                                         | 16                         | 913                                                              |
| 4.                                                                                                          | Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilar - jami | 635                                                              | 304                                                  | 42                | 4                              | 258                                                            | 0                            |                                               | 324                                                       | 0             | 3                            | 321                                                         | 0                          | 615                                                              |
| O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-iyundagi 319-sonli Qaroriga muvofiq, nafaqalar: |                                                       |                                                                  |                                                      |                   |                                |                                                                |                              |                                               |                                                           |               |                              |                                                             |                            |                                                                  |
| 5.                                                                                                          | Jami ijtimoiy nafaqa oluvchilar                       | 823                                                              | 243                                                  | 82                | 2                              | 160                                                            | 0                            | 0                                             | 297                                                       | 16            | 20                           | 261                                                         | 0                          | 769                                                              |
| 6.                                                                                                          | Shulardan: nogironlar soni                            | 791                                                              | 227                                                  | 73                | 1                              | 153                                                            | 0                            | 0                                             | 270                                                       | 13            | 20                           | 237                                                         | 0                          | 748                                                              |
| 7.                                                                                                          | shundan: 1-guruh bolalikdan nogiron                   | 27                                                               | 3                                                    | 2                 |                                | 1                                                              |                              |                                               | 5                                                         |               |                              | 5                                                           |                            | 25                                                               |
| 8.                                                                                                          | 2-guruh bolalikdan nogiron                            | 350                                                              | 116                                                  | 20                |                                | 96                                                             |                              |                                               | 90                                                        | 1             | 1                            | 88                                                          |                            | 376                                                              |
| 9.                                                                                                          | 16-yoshgacha bolalikdan nogiron                       | 407                                                              | 104                                                  | 50                | 1                              | 53                                                             |                              |                                               | 169                                                       | 12            | 16                           | 141                                                         |                            | 342                                                              |
| 10.                                                                                                         | 1-guruh umumiy kasallik nogiron                       | 2                                                                | 2                                                    |                   |                                | 2                                                              |                              |                                               | 1                                                         |               | 1                            |                                                             |                            | 3                                                                |
| 11.                                                                                                         | 2-guruh kasallik nogiron                              | 5                                                                | 2                                                    | 1                 |                                | 1                                                              |                              |                                               | 5                                                         |               | 2                            | 3                                                           |                            | 2                                                                |
| 12.                                                                                                         | 65 yoshga etgan erkaklar va 60 yoshga etgan ayollar   | 12                                                               | 0                                                    | 1                 |                                |                                                                |                              |                                               | 3                                                         | 3             |                              |                                                             |                            | 9                                                                |
| 13.                                                                                                         | Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilar         | 20                                                               | 16                                                   | 8                 | 1                              | 7                                                              | 0                            | 0                                             | 24                                                        | 0             | 0                            | 24                                                          | 0                          | 12                                                               |

<sup>26</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Bo'ka tumani bo'limi hisobot ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya'ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari to'lanadi.

## **2.2. O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimidan foydalanishning bugungi kundagi holati va tahlili**

Dissertatsiyaning 1-bobida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti amaliyotida bir qancha axborot tizimlaridan foydalanilmoqda. Pensiya jamg'armasi tizimida:

- “WS Personal” dasturi;
- pensiya miqdorlari oshirilganda pensionerlarning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlarini yuborish tizimi;
- AT “Xalq banki”ning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmat turi;
- davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni o'zida ifodalagan Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti;
- Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan “Ishonch telefoni”;
- “Pensiya” dasturiy majmui shular jumlasidandir.

1. Pensiya jamg'armasi tizimida “WS Personal” dasturi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatida foydalaniladigan ichki dastur hisoblanib, bunda dastur asosan pensiya ta'minotiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar, xodimlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi, xodimlarning bilim saviyasini oshirish test moduli va ijro intizomini tartibga soluvchi modul va so'rov modullaridan iborat majmuadir.

2. Pensiya miqdorlari oshirilganda pensionerlarning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlarini yuborish tizimi orqali pensionerlarga qo'shimcha qulayliklar yaratildi. Bunda pensionerlarning mobil telefon yordamida 10711 raqamiga SMS (\*Hisob raqami\*1# (\*RU# rus tilida)) so'rovi yuborish orqali pensiya miqdori va

to'lov muddati, pensiyalarning to'langanligi, tayinlanganligi, pensiya muddati to'g'risida batafsil ma'lumotlarni olish imkoniyati yuzaga keldi.

3. AT "Xalq banki"ning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun "SMS-xabarnoma" xizmat turi. Bu AT "Xalq banki" tizimida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilariga yangi, zamonaviy xizmat turlari ko'lamini kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya sohasidagi ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda zarur qulayliklar yaratib berdi. Ta'kidlash joizki, SMS (inglizcha SMS-short message service) – mijoz mobil aloqa tizimi vositalariga jo'natiluvchi real vaqt mobaynida bank tomonidan ma'lum bir ko'rinishda shakllantirilgan va mijoz uchun muhim bo'lgan axborotni o'zida jamlagan qisqa ko'rinishdagi xabarni anglatadi. "SMS-xabarnoma" tizimi esa bank mijozining mobil aloqa vositalariga real vaqt mobaynida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari harakati to'g'risida hamda bank va mijoz o'rtasidagi kelishuvga ko'ra boshqa turdagi SMS xabarlarini jo'natish imkonini beruvchi texnik-dasturiy tizimdir. "SMS-xabarnoma" xizmat turi mijozning xohishiga ko'ra istalgan vaqtda amalga oshiriladi. Mazkur tizimni ishlab chiqilishidan ko'zlangan maqsadlar:

- o'z qulayligi, mobilligi hamda ma'lumotlar va tizim ishtirokchilari uchun hisobraqamidagi mablag'lar harakatining himoyalanganligi bilan bank mijozlari talablariga javob beruvchi masofaviy bank xizmatlari, jumladan, "SMS-xabarnoma" xizmat turini ko'rsatish;

- "SMS-xabarnoma" masofaviy bank xizmat turi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va qonun osti hujjatlarida ko'zda tutilgan bank faoliyatiga doir talablarga javob berishi;

- "SMS-xabarnoma" tizimi axborot resurslarini ruxsat etilmagan tarzda tarqalishidan himoyalash;

- bank tizimida hosil qilingan SMS xabarlarini mijozga mobil aloqa operatori orqali to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida etkazish;

- "SMS-xabarnoma" tizimidan foydalanganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni zudlik bilan hal etish.

“SMS-xabarnoma” xizmat turidan foydalanish uchun jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etayotgan fuqarolar doimiy yashash joyidagi Xalq banki filialiga, majburiy tartibda ishtirok etayotgan fuqarolar asosiy ish joyi soliq ro’yxatiga olingan joydagi Xalq bankining tuman (shahar) filialiga ariza bilan murojaat qiladi. Ariza bank filiali rahbariyati tomonidan ko’rib chiqilib, ma’qullanganidan so’ng bank filialining ushbu xizmat turi bo’yicha rasman shug’ullanadigan mas’ul xodimi tomonidan Xalq bankining jamg’arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasiga mijozning arizasidagi rekvizitlari asosida tegishli ma’lumotlar kiritiladi.

“SMS-xabarnoma” xizmat turini yo’lga qo’yish bilan bog’liq munosabatlar bank bilan mijoz o’rtasida o’zaro tuziladigan shartnoma va amaldagi qonunchilik doirasida tartibga solinadi. Shartnomani, bir tomondan – mijoz, ikkinchi tomondan – bank filialining rahbari imzolaydi. Shartnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan bittasi mijozga beriladi, ikkinchisi bank filialida qoladi. Mijoz bilan tuzilgan shartnoma “SMS-xabarnoma” xizmatini ko’rsatish to’g’risidagi shartnomalarni ro’yxatga olish kitobida ro’yxatga olinadi. Ushbu kitob raqamlangan, ip o’tkazib tikilgan, filialning boshlig’i va bosh buxgalteri imzosi va muhri bilan tasdiqlangan bo’lishi lozim. Shartnoma raqami va mijozning arizasidagi rekvizitlari Xalq bankining jamg’arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasidagi ma’lumotlar bilan mos kelishi bo’yicha bank filiali mas’ul xodimi javobgar hisoblanadi.

“SMS-xabarnoma” tizimini ishlash tartibi quyidagicha: mijoz bank bazasiga ulangan kundan boshlab, u tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan bank dasturiy ta’minotida shakllantirilgan “SMS-xabarnoma” xabarlarini o’z mobil aloqa vositasi orqali olishi mumkin. Mijozning shaxsan o’zi mobil aloqa vositalari orqali qabul qilingan “SMS-xabarnoma” xabarlarining sir saqlanishi bo’yicha javobgardir. Mijozga uning hisobvarag’idagi mablag’lar to’g’risidagi ma’lumotlar, uyali aloqa vositasi orqali yuborilgan so’rov asosida uzluksiz tarzda “SMS-xabarnoma” xizmati ko’rsatiladi. Bank filiali tomonidan “SMS-xabarnoma” xizmat turidan foydalanishni yo’lga qo’yganligi uchun (mijozdan arizasini olish,

shartnoma tuzish va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining yagona elektron ma'lumotlar bazasidan ro'yxatdan o'tkazish) mijozdan vositachilik xizmat haqi olinmaydi. "SMS-xabarnoma" xizmatidan foydalanish jarayonida mijoz bank filialiga taqdim etgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlangan vaqtda ushbu kanalning avtomatik tarzda yopilishiga olib keladi. Bunday holatda tizim faoliyatini tiklash uchun mijoz bank filiali rahbari nomiga ariza bilan murojaat qilishi hamda taqdim etilgan ma'lumotlarni aniqlashtirishi lozim. Shundan so'ng "SMS-xabarnoma" tizimi bankning mas'ul xodimi tomonidan ochiladi. Bank filiali mijozni oldindan ogohlantirmasdan "SMS-xabarnoma" tizimini shartnomada ko'rsatilgan holatlarda o'chirib qo'yishi mumkin.

"SMS-xabarnoma" xizmat turi bilan bog'liq xarajatlar hisobi: bank tomonidan mijozga, "SMS-xabarnoma" xizmat turidan foydalanish uchun jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi elektron ma'lumotlar bazasida ro'yxatga olingan zahoti hamda yiliga bir marta kalendar yilning oxirgi kunidagi holati bo'yicha ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armasi to'g'risida bepul SMS xabarlar yuboriladi. Mijoz tomonidan "SMS-xabarnoma" xizmat turidan ma'lumotlar olish uchun yuboriladigan SMS so'rov xizmat haqi mijoz bilan tuziladigan shartnomada ko'rsatib o'tilgan narx bo'yicha mijozning mobil hisobraqamidagi qoldig'idan mobil aloqa operatorlari tomonidan avtomatik tarzda echiladi.

Mobil aloqa tarmoqlari orqali mijozning hisobraqamlari bo'yicha jo'natilgan "SMS-xabarnoma" xabarlar bankdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma'lumotlar bazasida axborot xavfsizligi qoidalariga rioya etilgan holda saqlanadi. "SMS-xabarnoma" tizimi orqali bank siriga oid axborotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etilish hollari ro'y bermasligi uchun Xalq bankining tuman (shahar) filiali jamg'arib boriladigan pensiya hisobini yuritish va nazorat qilish sho'ba mudiri/bo'lim boshlig'i shaxsan javobgar hisoblanadi. Mijoz tomonidan shartnomada ko'rsatilgan mobil telefon raqami o'zgarganda, yo'qotilganda yoki raqamdan foydalanilmagan hollarda 3 (uch) bank ish kuni davomida shartnomani bekor qiladi yoki o'zgartirish kiritadi.

4. Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti orqali pensionerlar davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni bevosita olishlari mumkin. Saytga shuningdek, "pensiya kalkulyatori" ruknida fuqarolar o'zlarining dastlabki pensiya miqdorlarini hisoblab chiqishlari va bu bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

5. Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan "Ishonch telefoni" 1140 - qisqa raqamli orqali xizmat joriy qilindi.

6. "Pensiya" dasturiy majmui ma'lumotlarni ro'yxatga olish, ishlab chiqish, tarqatish va taqdim etish asosidagi kompleks avtomatlashtirilgan jarayonda foydalanuvchilarni ishonchli, to'liq va dolzarb ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tizimini tuzishdan iboratdir. Bu esa Pensiya jamg'armasi butun tizimi ish faoliyatining samaradorligini oshirishga va Pensiya jamg'armasining mablag'larini maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga imkon yaratadi.


"Pensiya" dasturiy majmui quyidagi jarayonlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan: qonunchilik asosida nafaqa va yordam pullari tayinlash, miqdorini hisoblab chiqish, qaytadan hisoblash, nafaqa va yordam pullari to'lanishini hisob-kitob qilish; byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida pensioner-nafaqaxo'rlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish, saqlash, ishlab chiqish va ular to'g'risida ma'lumotlar berish, ishlab chiqilgan ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini orttirish maqsadida pensioner-nafaqaxo'rlar haqida ma'lumot beruvchi markazlashgan yagona ma'lumotlar bazasini yaratish; to'lov hujjatlarini shakllantirish (pensiya va yordam pullari to'lash uchun qaydnomalar), to'lovni amalga oshirishga mas'ul tegishli tashkilotlarga to'lov hujjatlarini elektron jo'natish; byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalari darajasida hisobot shakllarini olish, fuqarolarning pensiya bilan ta'minlanishining sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlarini yaxshilash tizimining vazifalari; pensiya va yordam pullarini turlar bo'yicha moliyalashtirishni hisobga olish va monitoring qilish; pensiya va yordam pullarini

hisobga olishning balans hisobvaraqlarining yuritilishi; Moliya Vazirligining g'azna bo'limi, "O'zbekiston pochta" OAJ, AT "Xalq banki" va boshqa tijorat banklari, Davlat soliq qo'mitasi, Adliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi kabi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

Ierarxiya darajasi va vazifalariga ko'ra "Pensiya" dasturiy majmui quyidagi qismlarga bo'linadi:

- markaziy respublika darajasida;
- hududiy daraja (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi);
- tuman darajasida (tumanlar va shaharlar).

"Pensiya" dasturiy majmuining har bir darajasi o'z vazifasiga ko'ra dasturiy modullarga ega, ya'ni bo'linmalarning faoliyat yo'nalishlariga qarab, aniq vazifalar bajarish imkoniyatiga ega dastur vositalaridan iboratdir (2.1-rasm).



**2.1-rasm. PK “Pensiya” dasturi majmuida qo'llaniladigan dasturiy modullar<sup>27</sup>**

<sup>27</sup> Pensiya jamg'armasida qo'llanilayotgan "Pensiya" dasturiy majmui asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

“Ma’murlash” moduli. “Ma’murlash” moduli boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish xavfsizligini ta’minlaydi (mualliflash, kirish yo’llari, foydalanuvchilar huquqi). Tizimga foydalanuvchilarning lavozim majburiyatlariga bog’liq bo’lmagan holda tuzilishning qulay mexanizmi va rollarning turlanishi o’rnatiladi. Rollar dasturiy moduldan foydalanuvchilarning lavozim majburiyatlariga muvofiq ma’muriyat – boshqaruvchi tomonidan shakllantiriladi. Har bir rolga mos ravishda foydalanuvchi menyusi va obyektga kirish to’plami qo’yiladi.

“Pensioner-nafaqa oluvchilarni ro’yxatga olish va hisobini yuritish” moduli. “Pensioner-nafaqa oluvchilarni ro’yxatga olish va hisobini yuritish” moduli quyidagi jarayonlarni avtomatlashtirishni ta’minlaydi: arizalarni ro’yxatga olish (pensionerlarni yagona shaxsiy raqamga biriktirib qo’yish); pensionerning shaxsiy varaqasini ochish; pensionerlar va yordam puli oluvchilarning shaxsiy varaqalarini yuritish, ijro etilish holatini kuzatish, shaxsiy varaqadagi o’zgarishlarni nazorat qilish; pensionerlar shaxsiy raqami va yordam puli oluvchilarning shaxsiy varaqalarining yuritilishi; pensionerning elektron kartochkasini shakllantirish va yuritish.

“Pensiya tayinlanishi” moduli. “Pensiya tayinlanishi” moduli qonunchilikka muvofiq pensionerlarni ro’yxatga olib, ularga pensiya tayinlash jarayonini avtomatlashtirishni ta’minlaydi: yoshga doir pensiyani hisoblash; nogironlik pensiyasini hisoblash; boquvchisini yo’qotganlik pensiyasini hisoblash; bolalikdan nogironlarga nafaqa pulini hisoblash; I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlash; keksaygan va yolg’iz fuqarolarga nafaqa hisoblash; davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yicha bir marta olinadigan ijtimoiy sug’urtani hisoblash.

“Pensiya va nafaqalarni qaytadan hisoblash” moduli. “Pensiya va nafaqalarni qaytadan hisoblash” moduli pensiya va nafaqalarni qaytadan hisoblash jarayonini avtomatlashtirishni ta’minlaydi: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining pensiya va nafaqalarni oshirish to’g’risidagi Farmoniga ko’ra va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan ish haqi miqdori va mehnat staji to’g’risidagi qo’shimcha ma’lumotlar, boshqa pensiya turiga o’tishi munosabati bilan,

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchilardan birining 18 yoshga to'lishi munosabati bilan, nogironlik guruhining o'zgarishi va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.

“To'lov davrlarini boshqarish va nazorat qilish” moduli. “To'lov davrlarini boshqarish va nazorat qilish” moduli to'lov davrlarini boshqarish jarayonini avtomatlashtirishni ta'minlaydi va ushbu davrlarni yuqori darajada nazorat qiladi. Modulda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: to'lov darining ochilishi; to'lov davri tarkibining o'zgarishi; to'lov davrining yopilishi; solishtirish dalolatnomalarini shakllantirish; to'lov davrlarini monitoring qilish.

“Qaydnomalarni shakllantirish va to'lovni nazorat qilish” moduli. “Qaydnomalarni shakllantirish va to'lovni nazorat qilish” moduli qaydnomalarni shakllantirish va to'lov ustidan nazorat qilishni avtomatlashtirishni ta'minlaydi: qaydnoma va reestr (ro'yxat)larni shakllantiradi; qaydnoma va reestr (ro'yxat)larni yuritadi; to'lov topshiriqnomalarini shakllantiradi; to'lov topshiriqnomalarini yuritadi; qaydnoma va reestr (ro'yxat)larni jo'natadi; to'lov topshiriqnomalarini jo'natadi.

“To'lovlarning to'xtatilishi” moduli. “To'lovlarning to'xtatilishi” moduli quyida keltirilgan holatlar munosabati bilan pensiya va nafaqalarni to'lashni to'xtatish, tiklash jarayonini avtomatlashtirishni ta'minlaydi: pensiya oluvchining vafoti munosabati bilan; turar-joy o'zgarishi munosabati bilan; nogironlik muddati tugashi bilan; bolalikdan nogironlarning 16 yoshga to'lishi bilan; boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchilarning 18 yoshga to'lishi va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlarda; “Harbiy xizmatchilarning nafaqa bilan ta'minlanishi to'g'risida”gi qonunga asosan boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchilarning 23 yoshga to'lishi munosabati bilan; vaqtinchalik propiska (uy-joy ro'yxatida turish) muddati tugashi bilan; pasport muddati tugashi bilan; ishga joylashish munosabati bilan.

“Tashqi tizimlar bilan o'zaro bog'liqlik” moduli. “Tashqi tizimlar bilan o'zaro bog'liqlik” moduli tashqi tizimlar bilan ma'lumotlar almashtirish jarayonini avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

“G’azna ijrosi” moduli. G’azna ijrosi moduli tizim komponenti hisoblanib, uning asosida Pensiya jamg’armasini moliyaviy boshqarishda moliyalashtirishni hisobga olish va jarayonlar biznesi olib boriladi.

“Hisobot berish” moduli. Bu modulda HTML shaklidagi zarur hisobotlar shakllantiriladi yoki EXCELda chiqariladi.

“Axborot-analitik ma’lumotlarni saqlash” moduli. “Axborot-analitik ma’lumotlarni saqlash” moduli (DATA WAREHOUSE) ma’lumotlar saqlanishini jarayonini avtomatlashtirishni ta’minlaydi.

“Normativ ma’lumotnomalarni yuritilishi” moduli. Bunda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: ma’lumotlar ma’lumotnomaga kiritiladi va tahrir qilinadi (yozuv qo’shimcha qilinadi, yozuv o’zgartiriladi, yozuv o’chiriladi, yozuv aktivlashtiriladi); ma’lumotnomani ko’rish.

O’zbekiston pensiya ta’minotida axborot tizimi jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotida ham faol joriy etilmoqda. AT “Xalq banki”ning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmat turidan foydalanish Tartibi bank tizimida jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi ishtirokchilariga yangi, zamonaviy xizmat turlari ko’lamini kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya sohasidagi ilg’or texnologiyalardan foydalangan holda zarur qulayliklar yaratish maqsadida mobil aloqa tizimlaridan foydalanishning umumiy tartib qoidalarini belgilab beradi.

Mazkur tizimni ishlab chiqilishidan ko’zlangan maqsad: o’z qulayligi, mobilligi hamda ma’lumotlar va tizim ishtirokchilari uchun hisobraqamidagi mablag’lar harakatining himoyalanganligi bilan bank mijozlari talablariga javob beruvchi masofaviy bank xizmatlari, jumladan, “SMS-xabarnoma” xizmat turini ko’rsatish; “SMS-xabarnoma” masofaviy bank xizmat turi O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va qonun osti hujjatlarida ko’zda tutilgan bank faoliyatiga doir talablarga javob berishi; “SMS-xabarnoma” tizimi axborot resurslarini ruxsat etilmagan tarzda tarqalishidan himoyalash; bank tizimida hosil qilingan SMS xabarlarini mijozga mobil aloqa operatori orqali to’g’ri, to’liq va o’z

vaqtida etkazish; “SMS-xabarnoma” tizimidan foydalanganda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni zudlik bilan hal etish.

“SMS-xabarnoma” xizmat turidan foydalanish uchun jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etayotgan fuqarolar doimiy yashash joyidagi Xalq banki filialiga, majburiy tartibda ishtirok etayotgan fuqarolar asosiy ish joyi soliq ro’yxatiga olingan joydagi Xalq bankining tuman(shahar) filialiga ariza bilan murojaat qiladi<sup>28</sup>. Ariza bank filiali rahbariyati tomonidan ko’rib chiqilib, ma’qullanganidan so’ng bank filialining ushbu xizmat turi bo’yicha rasman shug’ullanadigan mas’ul xodimi tomonidan Xalq bankining jamg’arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasiga mijozning arizasidagi rekvizitlari asosida tegishli ma’lumotlar kiritiladi.

“SMS-xabarnoma” xizmat turini yo’lga qo’yish bilan bog’liq munosabatlar bank bilan mijoz o’rtasida o’zaro tuziladigan shartnoma va amaldagi qonunchilik doirasida tartibga solinadi. Shartnomani, bir tomondan – mijoz, ikkinchi tomondan – bank filialining rahbari imzolaydi. Shartnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan bittasi mijozga beriladi, ikkinchisi bank filialida qoladi. Shartnoma raqami va mijozning arizasidagi rekvizitlari AT “Xalq banki”ning jamg’arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasidagi ma’lumotlar bilan mos kelishi bo’yicha bank filiali mas’ul xodimi javobgar hisoblanadi.

Mijoz bank bazasiga ulangan kundan boshlab, u tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan bank dasturiy ta’minotida shakllantirilgan “SMS-xabarnoma” xabarlarini o’z mobil aloqa vositasi orqali olishi mumkin. Mijozning shaxsan o’zi mobil aloqa vositalari orqali qabul qilingan “SMS-xabarnoma” xabarlarining sir saqlanishi bo’yicha javobgardir. Mijozga uning hisobvarag’idagi mablag’lar to’g’risidagi ma’lumotlar, uyali aloqa vositasi orqali yuborilgan so’rov asosida uzluksiz tarzda “SMS-xabarnoma” xizmati ko’rsatiladi.

AT “Halq banki” filiali tomonidan “SMS-xabarnoma” xizmat turidan foydalanishni yo’lga qo’yganligi uchun (mijozdan arizasini olish, shartnoma tuzish va jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining yagona elektron ma’lumotlar

---

<sup>28</sup> Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. 56-85-b.

bazasidan ro'yxatdan o'tkazish) mijozdan vositachilik xizmat haqi olinmaydi. Bank tomonidan mijozga, "SMS-xabarnoma" xizmat turidan foydalanish uchun jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi elektron ma'lumotlar bazasida ro'yxatga olingan zahoti hamda yiliga bir marta kalendar yilning oxirgi kunidagi holati bo'yicha ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armasi to'g'risida bepul SMS xabarlar yuboriladi.

Albatta, bunday xizmatlar pensionerlar va nafaqa oluvchilar uchun muhim omillardan hisoblanadi. Ammo, bu tizimni yanada takomillashtirib borish, AKTlaridan samarali foydalanish pensiya ta'minoti tizimining samarasini oshiradi.

### **2.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining axborot tizimidan foydalanish amaliyoti tahlili**

Bugungi kunda AKTlari har bir vazirlik, idora yoki muassasa ishining ajralmas qismiga aylanyapti. Bunga Pensiya jamg'armasi tomonidan "Pensiya" dasturiy majmuasining joriy etilishi misol bo'la oladi. Hozirgi vaqtda ushbu tizim Pensiya jamg'armasining barcha tuman va shahar bo'limlarida muvaffaqiyat bilan qo'llanmoqda.

"Pensiya" dasturiy majmuasi pensiya va ijtimoiy nafaqalar oladigan fuqarolar to'g'risidagi barcha axborot to'plangan ma'lumotlar yagona bazasidir. U pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisob-kitob qilish, qayta hisob-kitob qilish, shuningdek, har oyda hisoblash va to'lash jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda unda 3 million nafardan ziyod pensionerlar va nafaqa oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar: ularning shaxsiy pasport ma'lumotlari, yashash joylari, soliq to'lovchining identifikatsion raqami va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlari, nogironlik va navbatdagi qayta shahodatlash, mehnat staji va ish haqi, pensiya yoki nafaqa miqdori, kompensatsiya va boshqa to'lovlar, boquvchining qaramog'idagilar soni to'g'risidagi axborot va ularning pasport ma'lumotlari jamlangan.

Idoralararo “Nafaqa” yagona axborot tizimi Pensiya jamg’armasi, vazirlik va idoralarning elektron bazalari o’rtasidagi axborot almashinuvini ta’minlaydi. Ushbu loyihani ro’yobga chiqarish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrdagi “2015-2017-yillarda pensiya ta’minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 297-sonli Qaroriga muvofiq amalga oshirilyapti.

Ma’lumotlarning elektron almashinuvi allaqachon yo’lga qo’yilgan. Chunonchi, Toshkent shahri va viloyatida fuqarolarning hisoblangan sug’urta badallari to’g’risidagi ma’lumotlar 2015-yilning I-yarmidan boshlab Davlat soliq qo’mitasi ma’lumotlar bazasida shakllantirila boshlandi. 2016-yil I-choragidan ushbu amaliyot O’zbekistonning butun hududiga tatbiq etildi<sup>29</sup>.

2015-2017-yillarda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi pensiya ta’minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish reja-jadvaliga muvofiq<sup>30</sup> Adliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va tijorat banklari o’rtasida Markaziy bank orqali axborot almashinuvi amalga oshirilyapti. Bosqichma-bosqich unga oliy va o’rta maxsus ta’lim, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari, Moliya vazirligi G’aznachiligi, Oliy sudning elektron ma’lumotlar bazalari ulanadi. Bu esa bizga pensioner hayotining barcha jabhalari – ma’lumoti, mehnat faoliyati, soliqlari, ijtimoiy ahvoli, qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi va hokazolar to’g’risida zarur axborotga ega bo’lish imkonini beradi. Reja-jadvalni to’liq ro’yobga chiqarish 2017-yil oxirida yakunlanadi.

U yoki bu vazirlikning axborot tizimiga kiritilgan, ularga pensiya yoki nafaqalar tayinlash uchun zarur bo’lgan fuqarolar to’g’risidagi ma’lumotlar Pensiya jamg’armasining elektron so’rovi asosida elektron shaklda taqdim etiladi. Ushbu mexanizmni ishga tushirish uchun fuqarolarga tegishli ariza bilan Pensiya

---

<sup>29</sup> O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14 apreldagi “Fuqarolarning O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga o’tkazilgan sug’urta badallari to’g’risidagi ma’lumotlarni yakka tartibda hisobga olishni joriy etish chora-tadbirlari haqida”gi 90-son Qarori.

<sup>30</sup> O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrdagi “2015-2017 yillarda pensiya ta’minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 297-sonli Qarori.

jamg'armasi bo'limiga murojaat qilish etarlidir. Shu tariqa, pensiya va nafaqalarni tayinlash uchun zarur qog'oz shaklidagi ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni olish zarurati yo'qoladi. Masalan, bugungi kunda pensioner ish stajini tasdiqlash uchun arxiv muassasalardan tegishli arxiv ma'lumotnomalarini taqdim etishi kerak. Fikrimizcha, hujjatlar aylanishini elektronlashtirish vaqt o'tishi bilan qog'ozli hujjatlar sonini ancha kamaytiradi, keyinchalik esa ularni umuman muomaladan chiqarib yuboradi.

Bugungi kunda Pensiya jamg'armasi amaliyotiga "SMS-pensiya" interaktiv xizmati faol joriy etilmoqda. Pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash va to'lash jarayoni Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan zamonaviy veb-texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan PK "Pensiya" dasturi yordamida amalga oshirilmoqda. Pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, xususan, ularning pensiya va nafaqa miqdori hamda to'lov muddati to'g'risida ma'lumotni real vaqt rejimida mobil qurilmalar yordamida olishga mo'ljallangan yangi interaktiv SMS-so'rov xizmati joriy qilindi.

Pensiya va ijtimoiy nafaqa miqdori hamda to'lov muddati to'g'risida ma'lumot olish uchun 10711 raqamiga pensioner yoki nafaqa oluvchining pensionerlik guvohnomasida ko'rsatilgan shaxsiy hisobvaraqlari (etti raqamdan iborat) SMS-so'rov sifatida yuborish lozim. Mazkur interaktiv xizmatni joriy etish uchun Pensiya jamg'armasi va tegishli kontent provayder bilan shartnoma tuzilgan. SMS-so'rov bo'yicha taqdim etiladigan ma'lumotlar kontent provayder va mobil aloqa operatori tomonidan pullik xizmat (har bir SMS-so'rov bahosi \$0,02) asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashabbusi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Jamg'armasining tashkiliy hamda moliyaviy ko'magi, shuningdek, "Mobi Tel Inform" MChJning tashkiliy-texnik ko'magi asosida 2017-yil 1-fevraldan Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va


nafaqalarni oluvchi shaxslarga “SMS-Pensiya” interaktiv xizmati taqdim etildi. Interktiv xizmat tashabbuskori bo’lib, byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi hisoblanadi.

Interaktiv xizmatning vazifasi “SMS-Pensiya” xizmati davlat pensiya ta’minoti sohasidagi axborot beruvchi va xabardor qiluvchi SMS-xabarlarni shakllantirish hamda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarga jo’natish uchun mo’ljallangan. Interaktiv xizmatning maqsadi “SMS-Pensiya” xizmatini joriy etilishining asosiy maqsadi davlat pensiya ta’minoti sohasida pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarning so’rovlariga e’tiborni kuchaytirish hamda ularga bepul SMS-xabarlarni jo’natish bo’yicha xizmatni joriy etish orqali tezkorlik bilan javob berish hisoblanadi.

“SMS-Pensiya” interaktiv xizmatidan pensiya yoki ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxs, yohud uning yaqinlari: turmush o’rtog’i; o’g’li; qizi; nevarasi hamda qonuniy vakili foydalanishi mumkin.

Davlat pensiya ta’minoti sohasidagi SMS-xabarlarni pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarning mobil aloqa vositalariga jo’natish orqali ularga “SMS-Pensiya” xizmatini ko’rsatuvchi Pensiya jamg’armasi axborot tizimi rivojlanib bormoqda. Bu tizimda Pensiya jamg’armasi axborot tizimida pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarga ochib berilgan unikal raqam shaxsiy hisob raqam hisoblanadi. Shaxsiy hisob raqam Pensiya guvohnomasining “Shaxsiy hisobvaraq” qismida ko’rsatib o’tiladi. Foydalanuvchining mobil telefon raqamining “SMS-Pensiya” xizmatidan foydalanishi uchun tizimda shaxsiy hisob raqamga biriktirilishi jarayoni ro’yxatdan o’tishni anglatadi. Oldin shaxsiy hisob raqamga biriktirilgan mobil telefon raqamining ro’yxatdan chiqarilishi hamda “SMS-Pensiya” xizmatidan foydalanishi uchun yangi mobil telefon raqamning biriktirilishi jarayoni esa qayta ro’yxatdan o’tishni bildiradi. Qayta ro’yxatdan o’tish faqatgina Pensiya jamg’armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo’lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo’limiga uchrashish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy hisob raqamlarga mobil telefon raqamlarning biriktirilishi usullari tizimda shaxsiy hisob raqamga mobil telefon raqamning

biriktirilishi faqat ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Buni quyidagi 2.2-rasm orqali ifodalaymiz.



**2.2-rasm. Pensiya ta'minotining axborot tizimida shaxsiy hisob raqamlarga mobil telefon raqamlarning biriktirilishi usullari<sup>31</sup>**

Tizimda ro'yxatdan o'tish orqali foydalanuvchi o'zining mobil telefon raqamiga Pensiya jamg'armasining barcha turdagi SMS-xabarlarini olishga roziligini tasdiqlaydi. Tizimda foydalanuvchi mobil telefon raqamining ro'yxatdan o'tishi 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam va harflardan iborat SMS-so'rovni yuborish orqali amalga oshiriladi:

**2.6-jadval**  
**Pensiya ta'minoti axborot tizimida foydalanuvchi mobil telefon raqamining ro'yxatdan o'tishi<sup>32</sup>**

| Belgilar jamlanmasi        | Mazmuni                                   | Misol          |
|----------------------------|-------------------------------------------|----------------|
| *Shaxsiy hisob raqam*1*UZ# | SMS-xabarlarini o'zbek tilida olish uchun | *7000007*1*UZ# |
| *Shaxsiy hisob raqam*1*RU# | SMS-xabarlarini rus tilida olish uchun    | *7000007*1*RU# |
| *Shaxsiy hisob raqam*1#    | SMS-xabarlarini uzbek tilida olish uchun  | *7000007*1#    |

Bu erda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 1 – ro'yxatdan o'tish belgisi; UZ yoki RU – foydalanuvchi ma'lumotlarni qaysi tilda olishini bildiruvchi belgi. Agar til ko'rsatib o'tilmasa, unda ma'lumotlar o'zbek tilida yuboriladi.

<sup>31</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

<sup>32</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

Pensiya ta'minoti axborot tizimida foydalanuvchining muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tishi natijasida uning mobil telefon raqamiga ro'yxatdan o'tishda tanlagan tilida tizimning SMS-xabari keladi. Jumladan: Siz "SMS-Pensiya" xizmatiga 7000007-shaxsiy hisob raqami bo'yicha obuna bo'ldingiz. Xizmat bepul. Ma'lumot uchun [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) yoki Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlariga murojaat etishingiz mumkin.

Boshqa mobil telefon raqamga biriktirilgan shaxsiy hisob raqamga foydalanuvchi tomonidan mobil telefon raqamni biriktirishga uringanida, uning mobil telefon raqamiga oldingi (aktiv) foydalanuvchi ro'yxatdan o'tishda tanlagan tilda tizim SMS-xabari keladi. Xususan, 7000007-shaxsiy hisob raqam boshqa telefon raqamga biriktirilgan. Ma'lumot uchun [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) yoki Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlariga murojaat etishingiz mumkin. Agar shu holatda bu xabarni olgan shaxsning ettirozlari bo'lsa, unda u Pensiya jamg'armasining tegishli (pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxs ro'yxatda turgan) tuman (shahar) bo'limiga kelishi hamda qayta ro'yxatdan o'tish uchun o'rnatilgan arizani to'ldirishi lozim bo'ladi. Tizimda bitta mobil telefon raqamni bir nechta shaxsiy hisob raqamga, ammo 5 tadan oshmagan holatda biriktirish mumkin. Foydalanuvchi tomonidan bitta mobil telefon raqamni 5 tadan oshiq shaxsiy hisob raqamga biriktirishga uringanida, uning mobil telefon raqamiga 6-chi shaxsiy hisob raqamni ro'yxatdan o'tkazishdagi tanlagan tilida tizim SMS-xabari keladi, ya'ni xato. Bu raqamga 5 ta shaxsiy hisob raqami biriktirilgan. Ma'lumot uchun [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) yoki Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlariga murojaat etishingiz mumkin.

Pensiya ta'minoti axborot tizimida bir nechta mobil telefon raqamlarni bitta shaxsiy hisob raqamga biriktirishga yo'l qo'yilmaydi. Foydalanuvchi tomonidan ro'yxatdan o'tishda yoki undan o'tib bo'lgach noto'g'ri shakldagi ma'lumotlar SMS-so'rov sifatida yuborilsa, uning mobil telefon raqamiga tizim SMS-xabari keladi. Jumladan, xato. Siz noto'g'ri ma'lumot kiritdingiz. Qo'shimcha ma'lumot uchun [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) yoki Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlariga murojaat etishingiz mumkin.

Tizimda foydalanuvchining qayta ro'yxatdan o'tishi faqat bitta yo'l bilan amalga oshiriladi. Foydalanuvchining Pensiya jamg'armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo'lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo'limiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishi va tegishli arizani to'ldirishi orqali. Pensiya jamg'armasining tegishli tuman (shahar) bo'limi inspektori 1 ish kuni davomida tizimdagi shaxsiy hisob raqamga yangi mobil telefon raqamini biriktirishi shart deb belgilangan. Inspektor tomonidan tizimdagi shaxsiy hisob raqamga yangi mobil telefon raqamini kiritishi va biriktirishidan so'ng shu mobil telefon raqamga foydalanuvchi tanlagan tilda tizim SMS-xabari keladi.

Pensiya ta'minoti axborot tizimida SMS-xabar turidan kelib chiqib foydalanuvchi tomonidan "SMS-Pensiya" xizmati yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Tizimda shaxsiy hisob raqamga tegishli operatsiyalar amalga oshirilganda quyidagi 2.7-jadvalga muvofiq SMS-xabarlarning avtomatik tarzda shakllanishi va ularning foydalanuvchiga yuborilishi (ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga) orqali.

## 2.7-jadval

### **Pensiya tizimida axborotni olish uchun individual SMS-so'rovni talab qilmaydigan SMS-xabarlar (faqatgina ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga yuboriladi)<sup>33</sup>**

| t/r  | SMS-xabarlarning nomi                                                                                                                                | SMS-xabarlarning matni (raqamlar va summalar misol sifatida keltirilgan)                                                                                                                                                                                                                                |
|------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.1. | <b>Kiruvchi</b><br>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga binoan pensiya va ijtimoiy nafaqalarning oshganligi to'g'risida axborot beruvchi | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; 01.08.2016 yildagi PF-165-son Prezident Farmoniga binoan 01.09.2016 dan Sizning pensiya (nafaqa) miqdoringiz oshdi va 660 000,00 sumni tashkil etdi                                                                                          |
| 1.2. | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqaning pochta bo'limlari tomonidan etkazib berilganligi to'g'risida axborot beruvchi                 | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; Sizga 27.02.2016 da pochta orqali (naqd pul shaklida) 2016 yil fevral oyi uchun pensiya (nafaqa) yetkazib berildi. Pensiya (nafaqa) olmagan bo'lsangiz Pensiya jamg'armasi bo'limiga yoki 1140 ishonch telefoniga murojaat etishingiz mumkin |
| 1.3. | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqaning pochta bo'limlari tomonidan etkazib berilmaganligi to'g'risida axborot beruvchi               | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; Sizga 2016 yil fevral oyi uchun pensiya nafaqa ) vaqtincha uyda yo'qligingiz (ko'chib ketganligingiz) sababli yetkazib berilmadi. Pochta bo'limiga murojaat etishingizni so'raymiz                                                           |

<sup>33</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

| 2.7-jadvalning davomi |                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|-----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.4.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqaning tayinlanganligi to'g'risida axborot beruvchi                                       | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Sizga 20.02.2016 dan yoshga doir (nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik) pensiya (nafaqa) tayinlandi; Shaxsiy hisob raqamingiz-7000007; Tayinlangan muddati: 30.11.2016 (muddatsiz)                                                                                                                                                                                                      |
| 1.5.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqa to'lovining vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida xabar qiluvchi                   | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; 25.02.2016 dan Sizning pensiya (nafaqa)ngiz 3 oy davomida uyda bo'lmaganligingiz sababli vaqtincha to'xtatildi. Ma'lumot uchun Pensiya jamg'armasining bo'limiga murojaat etishingiz mumkin                                                                                                                                                                 |
| 1.6.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqa miqdoriga chegirma belgilanganligi to'g'risida xabar qiluvchi                          | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam - 7000007; 2016 yil iyun oyidan Sizning oylik pensiya (nafaqa) miqdoringizga chegirma belgilandi. Ma'lumot uchun Pensiya jamg'armasining bo'limiga murojaat etishingiz mumkin                                                                                                                                                                                        |
| 1.7.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqaning qayta hisob-kitob qilinganligi to'g'risida xabar qiluvchi                          | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; 25.02.2016 dan Sizning pensiya (nafaqa)ngiz (qo'shimcha hujjat taqdim etilganligi; Oila tarkibi o'zgarganligi; Nogironlik guruhi o'zgarganligi; Pensiya turi o'zgarganligi) sababli qayta hisob-kitob qilindi. Pensiya (nafaqa)ngiz 550000,00 sumdan 600 000,00 sumga o'zgardi. Ma'lumot uchun Pensiya jamg'armasining bo'limiga murojaat etishingiz mumkin |
| 1.8.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha pensiya yoki ijtimoiy nafaqaning muddati tugayotganligi to'g'risida xabar qiluvchi | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007; Sizga 05.02.2016 da tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiya (nafaqa) muddati tugashi munosabati bilan o'qish joyidan hujjat olib kelishingiz so'raladi. Ma'lumot uchun Pensiya jamg'armasining bo'limiga murojaat etishingiz mumkin                                                                                                                   |
| 1.9.                  | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya jamg'armasining tegishli bo'limiga uchrashish lozimligi to'g'risida xabar qiluvchi                             | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>05.02.2016 kuni Pensiya jamg'armasining tuman bo'limi (doimiy yashash joyi bo'yicha) inspektori Kimsanov K ga (tel:000-00-00) murojaat etishingizni so'raymiz                                                                                                                                                                                                                            |
| 1.10.                 | <b>Kiruvchi</b><br>Pensiya jamg'armasi rahbariyati bilan uchrashuv o'tkazilishi to'g'risida axborot beruvchi                              | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>05.02.2016 kuni soat 11:00 da Pensiya jamg'armasining "Olmazor tuman bo'limi"da Pensiya jamg'armasi rahbariyati- (K.Kimsanov) ishtirokida fuqarolar bilan uchrashuv bo'lib o'tadi. Taklif va shikoyatingiz bo'lsa uchrashuvda ishtirok etishingizni so'raymiz                                                                                                                            |

2. Quyidagi 2.8-jadvalda ko'rsatib o'tilgan SMS-xabarlarini olish uchun individual SMS-so'rovlarni jo'natish (ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga) orqali amalga oshiriladi.

## 2.8-jadval

**Pensiya ta'minotida axborotni olish uchun individual SMS-so'rovni talab qiladigan SMS-xabarlar (faqatgina ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamlarga yuboriladi)<sup>34</sup>**

| t/r  | SMS-xabarlarining nomi                                                                                                                                              | SMS-xabarlarining matni (raqamlar va summalar misol sifatida keltirilgan)                                                                                                                                                     | SMSning tizimdagi kodi |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
| 3.1. | <b>Chiquvchi (SMS-so'rov)</b><br>SMSni olish uchun so'rov                                                                                                           | <b>*7000007*61#</b><br>Joriy davr uchun<br><b>*7000007*61*022016#</b><br>Oldingi davr uchun                                                                                                                                   | <b>61</b>              |
|      | <b>Kiruvchi (61 kod ostidagi SMS-so'rovga javob)</b><br>Pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqa miqdori, to'lov shakli va tayinlangan muddati to'g'risida axborot beruvchi; | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007;<br>01/2016 uchun: pensiya (nafaqa) miqdori - 600 000,00 sum; To'lov shakli: pochta- 50% , bank-50% (ish joyi-50%);<br>Tayinlangan muddati: 30.11.2016 (muddatsiz). |                        |
|      | <b>Chiquvchi (SMS-so'rov)</b><br>SMSni olish uchun so'rov                                                                                                           | <b>*7000007*63#</b>                                                                                                                                                                                                           | <b>63</b>              |
|      | <b>Kiruvchi (63 kod ostidagi SMS-so'rovga javob)</b><br>Olinayotgan pensiya va/yoki ijtimoiy nafaqa turi to'g'risida axborot beruvchi;                              | <b>Pensiya jamg'armasi</b><br>Shaxsiy hisob raqam-7000007;<br>Ro'yxatdan o'tgan sana 20.02.2016;<br>Pensiya (nafaqa); Tayinlangan muddati: 30.11.2016 (muddatsiz).                                                            |                        |

Ma'lum SMS-xabarlarni olish 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam va harflardan iborat individual SMS-so'rovni yuborish orqali amalga oshiriladi:

## 2.9-jadval

**Pensiya tizimida ma'lum SMS-xabarlarni olish<sup>35</sup>**

| Belgilar jamlanmasi                              | Mazmuni                                                    | Misol        |
|--------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|--------------|
| *Shaxsiy hisob raqam<br>*SMSning tizimdagi kodi# | Xabarlarni ro'yxatdan o'tishda tanlangan tilda olish uchun | *7000007*61# |

Bu erda: 7000007- shaxsiy hisob raqam; 61-SMSning tizimdagi kodi, yuqoridagi 2.8-jadvalda ko'rsatib o'tilgan SMS-xabarlarni olish uchun foydalanuvchi tomonidan tanlanadi.

<sup>34</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

<sup>35</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

Pensiya ta'minoti axborot tizimida foydalanuvchi har bir shaxsiy hisob raqami bo'yicha "SMS-Pensiya" xizmatini o'chirish mumkin. Tizimda ma'lum bir shaxsiy hisob raqam bo'yicha "SMS-Pensiya" xizmatini o'chirish 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam va harflardan iborat SMS-so'rovni yuborish orqali amalga oshiriladi:

## 2.10-jadval

### **Pensiya tizimida ma'lum bir shaxsiy hisob raqam bo'yicha "SMS-Pensiya" xizmatini o'chirish<sup>36</sup>**

| <b>Belgilar jamlanmasi</b> | <b>Mazmuni</b>                                  | <b>Misol</b> |
|----------------------------|-------------------------------------------------|--------------|
| *Shaxsiy hisob raqam*0#    | Shaxsiy hisob raqam bo'yicha xizmatni o'chirish | *7000007*0#  |

Bu erda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 0-xizmatni o'chirish belgisi. Foydalanuvchi tomonidan xizmat o'chirilganda uning mobil telefon raqamiga ro'yxatdan o'tishda tanlangan tilda SMS-xabari keladi.

Tizim SMS-xabarining matni quyidagicha: Siz 7000007–shaxsiy hisob raqami bo'yicha SMS Pensiya xizmatini muvaffaqiyatli o'chirdingiz.

Foydalanuvchilarning individual SMS-so'rovlariga asosan yuboriladigan ma'lum SMS-xabarlar tizimda 3 oy davomida saqlanadi. SMS-xabarlar 2.8-jadvalda keltirilgan.

Foydalanuvchi SMS-xabarni o'chirib yuborgan, mobil aloqa vositasini o'zgartirgan taqdirda, u 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam va harflardan iborat individual SMS-so'rovni yuborish orqali o'tgan davrga tegishli SMS-xabarni olishi mumkin: \*shaxsiy hisob raqam \*SMSning tizimdagi kodi\*o'tgan davr#; o'tgan davr uchun xabarlarni ro'yxatdan o'tishda tanlangan tilda olish. Masalan: \*7000007\*61\*112016#. Bunda 7000007 - shaxsiy hisob raqam; 61 – SMSning tizimdagi kodi, yuqoridagi 3-jadvalda ko'rsatib o'tilgan SMS-xabarlarni olish uchun foydalanuvchi tomonidan tanlanadi; 112016 – talab qilingan (o'tgan)

<sup>36</sup> Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "SMS-pensiya" interaktiv xizmatini taqdim etish reglamenti asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

davr uchun SMS-xabar, davr SMS-so'rov jo'natilayotgan sanadan oldingi 3 oydan oshmasligi kerak.

Bugungi kunda Pensiya jamg'armasi amaliyotida "WS Personal" ichki dasturi faol joriy qilingan bo'lib, pensiya ta'minotiga oid huquqiy-huquqiy baza, xodimlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi, xodimlarning bilim saviyasini oshirish test moduli va ijro intizomini tartibga soluvchi modul va so'rov modullaridan iborat majmua hisoblanadi. Shuningdek, Internet tizimi ommaviylashib borayotgan bugungi kunda pensionerlar davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni bevosita Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti orqali olishlari mumkin. Saytga shuningdek "pensiya kalkulyatori" ruknida fuqarolar o'zlarining dastlabki pensiya miqdorlarini hisoblab chiqishlari va bu bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan "Ishonch telefoni" 1140-qisqa raqamli orqali xizmat joriy qilindi.

## **II bob bo'yicha xulosa**

– Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24,8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (8%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi. Hozirgi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbai bo'lib, ish beruvchilarning umumiy ish haqi fondidan hisoblab beradigan yagona ijtimoiy to'lovdir;

– Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o'zgarish xususiyatiga egadir. Aksincha Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish

xususiyatiga egadir. Agar 2012-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 6,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda esa bu ko'rsatkich 14,9 foizni tashkil qilgan;

- bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti amaliyotida bir qancha axborot tizimlaridan foydalanilmoqda. Xususan, “WS Personal” dasturi; pensiya miqdorlari oshirilganda pensionerlarning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlarini yuborish tizimi; aktsiyadorlik tijorat Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmat turi; Internet tizimi ommaviylashib borayotgan bugungi kunda pensionerlar davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni bevosita Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti; Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan “Ishonch telefoni”; “Pensiya” dasturiy majmui shular jumlasidandir;

- pensiya ta'minotida axborot tizimlarining, xususan, PK “Pensiya” dasturiy majmui, “SMS-Pensiya” interaktiv xizmati, “WS Personal” ichki dasturi, Pensiya jamg'armasining rasmiy veb-sayti va ishonch telefonlarining amaliyotga faol joriy qilinishi tizimda AKTlarini rivojlantirish bilan birga mehnat unumdorligini oshirish, pensioner va nafaqa oluvchilar o'ta qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi;

- zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, mijoz uchun yangi-yangi xizmat turlarini yaratib, amaliyotga joriy etish AT “Xalq banki”ning muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, ushbu bank jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmatini joriy etdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilariga yangi, zamonaviy xizmat turlarini ko'rsatish va ularni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamidagi mablag'lar holatidan xabardor qilishdan iborat. Bu mijozning mobil aloqa vositalari orqali istalgan vaqtda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamidagi mablag'lar qoldig'i to'g'risida ma'lumot olish imkonini beruvchi dasturiy tizim hisoblanadi;

- AKTlarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

### **III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTIDA AXBOROT TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1. Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni barataf etish yo'llari**

Bugungi kunda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan AKTlari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot tizimlarining joriy etilishi, nafaqat, xizmatlar ko'rsatish jarayonini optimallashtirish va soddalashtirish, balki bu jarayonda mablag' tejalishiga ham xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida moliyalashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrdagi "2015-2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qarori bu borada muhim omil bo'layotir. Mazkur hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Pensiya" dasturiy majmui negizida uni yanada takomillashtirish hamda funktsional kengaytirish yo'li bilan keksa kishilar uchun pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini nazarda tutuvchi, ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog'oz shaklida olishni istisno etuvchi, shuningdek, pensiyalar hamda nafaqalar to'lashga mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlaydigan yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini tashkil etish to'g'risidagi taklifi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish reja-jadvalida belgilangan

vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, Markaziy bank telekommunikatsiya tarmog'i orqali Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan "Turonbank" aktsiyadorlik tijorat banki axborotlashtirish tizimi o'rtasida himoyalangan aloqa kanali tashkil etilib, ma'lumotlar almashinuvi elektron shaklda yo'lga qo'yildi. Xususan, "Turonbank" ATB tomonidan pensiya, nafaqa, va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha elektron qaydnomalarni avtomat tarzda qayta ishlash hamda pensiya, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar oluvchilarning bankdagi hisobraqamlariga kirim qilish tizimi ishga tushirildi.

Bugungi kunda pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash va to'lash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan zamonaviy veb-texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan PK "Pensiya" dasturi yordamida amalga oshirilmoqda. Pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, xususan, ularning pensiya va nafaqa miqdori hamda to'lov muddati to'g'risida ma'lumotni real vaqt rejimida mobil qurilmalar yordamida olishga mo'ljallangan yangi interaktiv SMS-so'rov xizmati joriy qilindi. Pensiya va ijtimoiy nafaqa miqdori hamda to'lov muddati to'g'risida ma'lumot olish uchun 10711 raqamiga pensioner yoki nafaqa oluvchining pensionerlik guvohnomasida ko'rsatilgan shaxsiy hisobvaraqlari (etti raqamdan iborat) SMS-so'rov sifatida yuborish lozim. Mazkur interaktiv xizmatni joriy etish uchun Pensiya jamg'armasi va tegishli kontent provayder bilan shartnoma tuzilgan. SMS-so'rov bo'yicha taqdim etiladigan ma'lumotlar kontent provayder va mobil aloqa operatori tomonidan pullik xizmat asosida amalga oshiriladi.

Biroq so'nggi yillarda iqtisodiyotimizning mazkur tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganiga qaramasdan, hozirgi vaqtda biz bu borada dastlabki bosqichda turganimizni tan olishimiz darkor. Ya'ni mamlakatimiz YaIMining 2 foizga yaqini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Uni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, 89 foizi aloqa va

axborotlashtirish, 4 foizi dasturiy ta'minot ishlab chiqarish, 7 foizi elektron mahsulotlar hamda kompyuterlar tayyorlash tarmoqlari ulushiga to'g'ri keladi.

Aytish joizki, YaIM tarkibida AKTlari hissasi oshishi bevosita boshqa sohalar rivojiga ham keng yo'l ochadi. Misol uchun, Hindistonda mazkur industriyaning taraqqiy etishi tufayli AKTlari, autsorsing xizmatlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oldi. Pirovardida 2015-yilda biznes jarayonlar autsorsingidan olingan daromad 150 milliard AQSh dollarini tashkil qildi<sup>37</sup>.

Shu ma'noda, yurtimizda xizmatlar ko'rsatish sohasida aloqa va axborotlashtirish tarmog'ining hissasi tobora ortib borayotgani quvonarlidir. Gap shundaki, o'tgan yili tizim korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar 15,4 foiz o'sdi. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar 17,5 foiz, kompyuter va dasturlash xizmatlari 13,4 foiz oshdi. Qolaversa, respublikamizda 320 ta davlat axborot resursi ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu borada avvalgi yildagiga nisbatan 23 foiz o'sishga erishilgan. Xuddi shu davrda davlat organlarining 466 tasi axborot tizimi ro'yxatidan o'tkazildi. Bularning barchasi yuqori intellektual bilimlarni talab qiladigan AKTlari sohasi tobora ravnaq topib, sog'lom raqobat muhiti vujudga kelganidan yaqqol dalolat beradi.

AKTlarining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanmish shaxsiy kompyuterlarni ishlab chiqarish va boshqaruv sohasida qo'llayotganlar soni keyingi besh yilda 1,6 barobar ko'payib, 620 ming 212 tani tashkil qildi. Jumladan, 3338 ta korxona faoliyatida dasturiy vositalarning deyarli barcha turlaridan keng foydalanilmoqda, ya'ni ularning 2151 tasida antivirus, 1253 tasida elektron shaklda moliyaviy hisob-kitoblarni bajarish, 724 tasida elektron huquqiy-ma'lumotnoma tizimlari, 550 tasida tashkiliy, boshqaruv va iqtisodiy vazifalarni echish, 284 tasida esa tovarlarni sotish va sotib olishni boshqarish dasturlari qo'llanilmoqda. Bu ijobiy holat, albatta.

---

<sup>37</sup> Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: mehnat unumdorligi va taraqqiyot. <http://xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/7020>. sayti ma'lumotlari.

Dasturiy vositalarni tanlashga ham jiddiy e'tibor qaratilishi zarur. Chunki bunday mahsulotlarning zamonaviysidan foydalanilmasa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga kiritilayotgan investitsiyalar o'zining iqtisodiy samarasini bermasligi mumkin. Binobarin, yurtimizda 328 ta mikrofirm va korxona dasturiy mahsulotlarni loyihalashtirish va ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga AKTlari tatbiq etilishi jarayonida tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirilib, innovatsiyalar oqilona qo'llanilsa, samaradorlik yanada yuqori bo'ladi. Bu borada Janubiy Koreya, Xitoy, Finlyandiya kabi mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sababi ushbu davlatlarda sohaga boshqalarga nisbatan 2 marta ko'p sarmoya sarflanib, u, asosan, zarur qurilmalar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya mahsulotlari va axborot xizmatlari ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Bu bejiz emas. Nega deganda, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi, avvalambor, bilimlar va intellektual salohiyat hisobiga ta'minlanayapti. Shuning uchun ham bu jabhaga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori asosiy fondlardagiga qaraganda jadal o'sib bormoqda. Masalan, Jahon bankining 2015-yildagi tadqiqotlariga muvofiq, birgina tezkor internet foydalanuvchilari sonini 10 foizga oshirish orqali mamlakat YaIMini 1,3-2 foiz, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni esa 1,2 foiz yuksaltirishga erishish mumkin ekan.

Xulosa o'rnida aytganda, AKTning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri nihoyatda yuqori bo'lib, bu, eng avvalo, mehnat unumdorligining o'sishi, raqobatdoshlik ta'minlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayishida namoyon bo'ladi. Pirovardida, sanoat salohiyati yuksalib, tashqi bozorlarga chiqish, yangi savdo yo'nalishlari ochish imkoniyati kengayib boraveradi.

Milliy telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga zamonaviy AKTlarini joriy qilish, "elektron hukumat" infratuzilmasini takomillashtirish borasida erishilgan natijalarni qayd etgan holda rejalashtirilgan vazifalarni etarli darajada bajarilmayotganiga ham e'tibor qaratish zarur. Aholining kompyuter savodxonligini oshirish, fuqarolarni

elektron davlat xizmatlaridan foydalanish mexanizmlari haqida xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan axborot-tushuntirish ishlari sifatini tubdan yaxshilash zarur.

Bizning fikrimizcha, davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlari rahbar-xodimlarining AKTlaridan foydalanish yuzasidan savodxonligini yanada oshirish zarur;

- pensiya tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish lozim;

- pensiya tizimida raqobatbardosh dasturiy mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilishini va ichki bozorini hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirishga ko'maklashish va uning muvofiqlashtirilishini ta'minlash, davlat pensiya ta'minoti va jamg'arib boriladigan pensiya tizimida zamonaviy dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va axborot resurslarini joriy etish hamda takomillashtirib borish darkor;

- pensiya ta'minoti tizimidagi zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va tatbiq etish, axborot xavfsizligini ta'minlash kerak;

- pensiya tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy pensiya axborot tizimlarini rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

- Internet tarmog'ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, pensiya tizimidagi zamonaviy veb-resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik vositalar va qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishda Pensiya jamg'armasi va AT "Halq banki"da pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lashning avtomatlashtirilgan axborot tizimini takomillashtirish zarur. Bunda Pensiya jamg'armasi va AT "Halq banki" quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi muhimdir:

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar haqidagi barcha ma'lumotlarni saqlash uchun yagona ma'lumotlar majmuini yaratish;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash jarayonlarini avtomatlashtirish;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash haqida statistik va tahliliy ma'lumotlarni olish jarayonini avtomatlashtirish;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash jarayonida hujjatlar almashinuvini avtomatlashtirish;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash jarayonlari ustidan monitoringni avtomatlashtirish.

Pensiya jamg'armasi va AT "Halq banki" tomonidan yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari uchun quyidagi masalalar echimni topishi zarur:

- Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'linmalari hamda AT "Halq banki" va uning filiallari aholini pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash jarayoni haqidagi ma'lumotlar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash.

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni tezkor qidirib topishni ta'minlash;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash jarayonlari ustidan monitoring o'rnatish;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarning to'lovi bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash;

- pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning sifatini yaxshilash va tezkorligini oshirish;

– pensiya, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlashga sarf etiladigan vaqtlarini biznes jarayonlarni avtomatlashtirish evaziga kamaytirish.

### **3.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish va rivojlantirish masalalari**

Bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti amaliyotida bir qancha axborot tizimlaridan foydalanilmoqda: “WS Personal” dasturi; “SMS xabarlar” tizimi; AT “Xalq banki”ning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmat turi; Pensiya jamg'armasining (pfu.uz) rasmiy veb-sayti; Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan “Ishonch telefoni”; “Pensiya” dasturiy majmui shular jumlasidandir.

Ana shu axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini oshirish, Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardandir. Bu borada maxsus kontsepsiya yaratilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, 2017-2020-yillarga mo'ljallangan Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini faol joriy etish va rivojlantirish Kontsepsiyasini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz. Bizning fikrimizcha, ushbu Kontsepsiya loyihasi quyidagilarni nazarda tutishi zarur.

Eng avvalo, Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini faol joriy etish va rivojlantirish Kontsepsiyasi amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Pensiya jamg'armasi tomonidan boshqaruv va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish va rivojlantirish, ko'rsatiladigan davlat interaktiv xizmatlari turlarini va sifatini oshirish, foydalanuvchilarga onlayn tarzda xizmat ko'rsatish va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydi.

*Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish va rivojlantirish Kontsepsiyasining maqsad va vazifalari.* Kontsepsiyaning bosh maqsadi – Pensiya jamg'armasi va uning

hududiy bo'limlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlarini keng joriy qilish, rivojlantirish va takomillashtirish, axborot tizimlarini o'z vaqtida ishga tushirish, ish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va axborot almashuvini uyg'unlashtirish, pensiya ta'minoti axborot tizimlarining samaradorligini oshirish hamda Pensiya jamg'armasi tomonidan pensionerlar va nafaqa oluvchilarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini, jumladan, interaktiv xizmatlarini kengaytirish hamda Pensiya jamg'armasi xizmatlari sifatini oshirishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar Kontseptsianing asosiy vazifalari hisoblanadi:

- pensiya ta'minoti axborot tizimlarida zamonaviy texnik echim va texnologiyalarni keng qo'llagan holda Pensiya jamg'armasi faoliyatini avtomatlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko'tarish;

- pensiya ta'minoti tizimida qo'llanilayotgan axborot tizimlarini takomillashtirish;

- pensiya ta'minoti tizimida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash;

- pensiya ta'minoti tizimida axborot resurslarini doimiy ravishda zaruriyat bo'yicha yangilab borish va ulardan keng foydalanishni ta'minlash;

- pensiya ta'minoti tizimida boshqaruv va xizmat ko'rsatish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirish orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqaga oid xizmatlar turlarini amaliyotga keng tatbiq qilish va kengaytirish, pensionerlar va nafaqa oluvchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish;

- pensionerlar va nafaqa oluvchilar tomonidan axborotlarni erkin va moneliक्सiz olishni ta'minlash, shuningdek, interaktiv xizmat turlarini kengaytirish;

- xavfsizlik va axborotlar muhofazasining tashkiliy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va takomillashtirish hamda yangi texnologiyalarni qo'llagan holda axborot muhofazasi tizimini yanada rivojlantirish;


– pensionerlar va nafaqa oluvchilarga interaktiv xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan Pensiya jamg'armasining rasmiy veb-saytini identifikatsiyalash tizimi bilan integratsiyalash;

– Pensiya jamg'armasining Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytlari faoliyatini doimiy monitoring qilish va sifatini oshirish. Jumladan, ma'lumotlarni muntazam yangilab borish, veb-saytlar orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar turlarini kengaytirish;

– respublikada elektron tijoratni rivojlantirish kontsepsiyasi va davlat dasturlarini amalga oshirish va joriy etishda faol qatnashish;

– pensiya ta'minoti sohasida AKTlari bo'yicha mutaxassislar malakasini muntazam ravishda oshirish, kadrlar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga ko'tarish.

Shuningdek, Kontsepsiyada zamonaviy AKTlarini qo'llagan holda 2017-2020-yillar davomida Pensiya jamg'armasi tomonidan pensionerlar va nafaqa oluvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish, takomillashtirish va joriy etish istiqbollari aniqlab olinadi.



**3.1-rasm. Davlat pensiya ta'minotining axborot tizimlarini rivojlantirish KONTSEPSIYASI<sup>38</sup>**

<sup>38</sup> Ilmiy-tadqiqot natijalari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqildi.

Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish bosqichlari. Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'i birlamchi operator "O'zbektelekom" AJning telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanishga asoslangan. AKTlarining takomillashib borishi, shuningdek, "O'zbektelekom" AJning transport infratuzilmasining rivojlanishini hisobga olgan holda Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'ini muntazam ravishda rivojlantirish va takomillashtirish ishlari olib boriladi.

Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish loyihalarida "O'zbektelekom" AJ infratuzilmasining zamonaviy imkoniyatlari hisobga olinib, 2017-2020-yillarda quyidagilarni amalga oshirish rejalashtiriladi:

- tarmoqni rivojlantirilishini hisobga olgan holda boshqarish markazini takomillashtirish;
- pensionerlar va nafaqa oluvchilarga ko'rsatiladigan Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'i xizmatining sifati va turlarini doimiy ravishda oshirib borish.

Pensiya jamg'armasi faoliyatida axborot-kommunikatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish jarayonlarni avtomatlashtirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir mutaxassisning ish joyini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida avtomatlashtirish natijasida pensiya ta'minoti sohasidagi masalalar yuzasidan samarali echimlarni ishlab chiqish, iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish sabablarini hududlar va butun respublika bo'yicha chuqur tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimi Pensiya jamg'armasi rahbariyati va qaror qabul qiluvchi mutaxassislarni tezkor ravishda ishonchli axborot bilan ta'minlagan holda, Pensiya jamg'armasining moliyaviy faoliyatini optimallashtirish bo'yicha zarur qarorlarni qabul qilishga zamin yaratadi. Tizimda barcha axborot turlari dasturiy ravishda qabul qilinadi va ma'lumotlar omborida, ya'ni katta hajmdagi ma'lumotlar bazasida jamlanadi.

O'z navbatida, pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishi uning barcha axborot tizimlarini uzilishlarsiz ishlashiga bog'liq. Shuning uchun tizim tarkibiga kiruvchi dasturiy ta'minotlar, ma'lumotlar bazalari va texnik vositalarini doimiy ravishda kuzatib borish talab etiladi. Axborot tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida axborot-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirish loyihalari, texnik topshiriqlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2017-2020-yillarda Pensiya jamg'armasi faoliyatida qo'llanilayotgan: "WS Personal" dasturi; pensiya miqdorlari oshirilganda pensionerlarning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlarini yuborish tizimi; AT "Xalq banki"ning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun "SMS-xabarnoma" xizmat turi; Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti; Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan "Ishonch telefoni"; "Pensiya" dasturiy majmuini takomillashtirish, dasturiy ta'minotga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi.

Pensiya jamg'armasining Internet tarmog'idagi veb-saytlari ma'lumotlarini muntazam yangilash, interaktiv xizmat turlarini va ular asosida xizmat turlarini kengaytirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 181-sonli qaroriga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to'g'risidagi Nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri tasdiqlangan. Bundan tashqari, rasmiy saytda qo'shimcha interaktiv xizmatlar doirasidagi sahifalar ko'lamini (Pensiya jamg'armaning Kuzatuv kengashi, Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom, Pensiyani qayta hisoblash uchun asoslar, Pensiyalardan chegirmalar, Pensiyalarni to'lash, Pensiyalarni

ishonchnoma orqali to'lash, Pensiyalarni to'xatilishi (to'xatib turilishi), Yashash manzilining o'zgarishi, Pensionerlarning huquqlari, Pensionerlarning majburiyatlari, Pensiyalar turlari, Yoshga doir pensiya, Nogironlik pensiyasi, Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, Ish stajini aniqlash tartibi, Pensiya hisoblash uchun olinadigan ish haqi, Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsienti, Pensiya tayinlash uchun hujjatlar, Imtiyozli pensiyaga huquqlar, Pensiya kalkulyatori, Majburiy to'lovlar, Majburiy to'lovlar stavkasi, Pensiyalarni tayinlash muddatlari, Ishlovchi pensionerlarga to'lovlar, Pensiyalarni to'lashga harajatlarni qoplash, Ish beruvchining huquqlari, Ish beruvchilarning majburiyatlari, Bolalikdan nogironlarga nafaqalar, Yoshga doir nafaqa, Nogironlik nafaqasi, Dafn marosimi uchun nafaqa, Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa, Kompensatsiya pul to'lovlari, Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi, Fuqarolarning murojaat etish tartibi, Pensiya jamg'armasining "Ishonch telefonlari", Bo'sh ish o'rinlari) kengaytirish zarur.

Pensiya jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat xizmatlarini rasmiy veb-sayti orqali interaktiv xizmat tarzida ko'rsatilish maqsadida fuqaro va yuridik shaxslarning elektron murojaatlarini ro'yxatga olish uchun shaxsiy kabinet tashkil etilgan.

Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlarining veb-saytlariga doir vazifalar bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish belgilanadi: Veb-sayt sahifalarida davlat axborot resurslariga doir ma'lumotlarni joylashtirilishini ta'minlash va ularning turlarini yanada kengaytirish.

Internet tarmog'ida veb-saytlar ma'lumotlar bazasini muntazam yangiliklar bilan to'ldirib borish, Pensiya jamg'armasining veb-saytlari orqali interaktiv xizmatlar ko'rsatish uchun tashkil etiladigan axborot tizimlarining yagona standartlar va talablar asosida o'zaro hamkorlik qilishini yo'lga qo'yish.

Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish sharoitida xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish

Pensiya tizimida axborot muhofazasi tizimi kompleks tarzda yaratilgan bo'lib, bunda axborot bir nechta bosqichlarda himoyalanaadi. Bularga misol qilib, elektron to'lov hujjatlari elektron tarzda yaratilganda, ushbu hujjat elektron raqamli bilan tasdiqlanaadi va shifrlanaadi, keyingi bosqichda himoyalangan aloqa kanallari orqali yuboriladi. Shu bilan birga, pensiya axborot tizimini tashqi muhitdan himoyalash maqsadida tarmoqlararo ekranlar o'rnatilgan, shuningdek, banklardagi server va ishchi stantsiyalarning barchasiga litsenziyalangan antivirus dasturlari o'rnatilgan.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari infratuzilmasining avtomatlashtirilgan boshqarish va monitoring tizimi qo'llaniladi. Bunda lokal hisoblash tarmog'i tarkibidagi mavjud texnika jihozlarining ish unumdorligi va hisobini yuritish, tizimlarda yuzaga keladigan nosozlik holatlarini aniqlash, tegishli dasturiy ta'minotni masofadan turib o'rnatish hamda tarmoq xizmatining sifat ko'rsatkichlarini markazlashgan holda nazorat qilish bilan birga tarmoqda mavjud bo'lgan o'zgarishlarni operativ ravishda aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu tizimlarni tashkiliy tomondan xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish tizimi bilan muvofiqlashtirish axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Pensiya axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida foydalanishga joriy qilingan barcha tizimlar uchun axborotni muhofaza qilish bo'yicha dasturiy-texnik vositalar joriy qilinadi, mazkur tizimlardan foydalanish yo'riqnomalari ishlab chiqilib, xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar kiritiladi.

Bundan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlari mutaxassislarining bilimlari va amaliy saviyalarini oshirib borish maqsadida muntazam ravishda o'quv-amaliy mashg'ulotlari o'tkaziladi, xavfsizlik bo'yicha mutaxassislar maxsus o'quv kurslariga yuboriladi va tegishli sertifikatlar bilan ta'minlanadi.

Istiqbolda AT "Xalq banki"ning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun "SMS-xabarnoma" xizmat turidan foydalanish samaradorligini va sifatini oshirish talab etiladi.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlarni pensiya tizimida o'z vaqtida va samarali bajarishga erishiladi. Shu bilan birga, zamon talablariga muvofiq ravishda axborot muhofazasi tizimi shakllantiriladi, bu esa axborot tizimlarining uzluksiz ishlashini va xizmatlarni sifatli taqdim etilishini ta'minlaydi.

### **III bob bo'yicha xulosa**

– davlat pensiya ta'minoti va jamg'arib boriladigan pensiya tizimida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan AKTlari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Pensiya tizimida axborot tizimlarining joriy etilishi, nafaqat, xizmatlar ko'rsatish jarayonini optimallashtirish va soddalashtirish, balki bu jarayonda mablag' tejallishiga ham xizmat qilmoqda. Bu esa pensionerlar va nafaqa oluvchilar uchun eng muhim omillardan sanaladi;

– davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlari rahbar-xodimlarining AKTlaridan foydalanish yuzasidan savodxonligini oshirish muammosi; pensiya tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi; pensiya ta'minoti tizimidagi zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish muammosi va h.k.;

– Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini faol joriy etish va rivojlantirish Kontseptsiyasi Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlarini keng joriy qilish, rivojlantirish va takomillashtirish, axborot tizimlarini o'z vaqtida ishga tushirish, ish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va axborot almashuvini uyg'unlashtirish, pensiya ta'minoti axborot tizimlarining samaradorligini oshirish hamda interaktiv xizmatlarini kengaytirishdan iborat.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

– davlat pensiya ta'minoti va jamg'arib boriladigan pensiya tizimida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan AKTlari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Pensiya tizimida axborot tizimlarining joriy etilishi, nafaqat, xizmatlar ko'rsatish jarayonini optimallashtirish va soddalashtirish, balki bu jarayonda mablag' tejalishiga ham xizmat qilmoqda. Bu esa pensionerlar va nafaqa oluvchilar uchun eng muhim omillardan sanaladi. So'nggi besh yillikda pensiya va nafaqa oluvchilar soni yiliga o'rtacha 4 foizdan o'sib, bugungi kunda 3 million nafardan ortiqni tashkil etmoqda;

– fuqarolarga pensiya ta'minoti borasida yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator davlat interaktiv xizmatlari amaliyotga joriy etildi. Xususan: Pensiya jamg'armasi tizimida “WS Personal” dasturi; “SMS-pensiya” axborot tizimi; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilari uchun “SMS-xabarnoma” xizmat turi; Pensiya jamg'armasining – pfru.uz – rasmiy veb-sayti; Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan “Ishonch telefoni” hamda “Pensiya” dasturiy majmui shular jumlasidandir;

– Pensiya jamg'armasining “Pensiya” dasturiy majmui negizida uni yanada takomillashtirish hamda funktsional kengaytirish yo'li bilan keksa kishilar uchun pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini nazarda tutuvchi, ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog'oz shaklida olishni istisno etuvchi, shuningdek, pensiyalar hamda nafaqalar to'lashga mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlaydigan yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimining tashkil etilganligi pensiya tizimida islohotlar samaradorligini belgilab beradi. “Pensiya” dasturiy majmui pensiya va

nafaqalarni tayinlash, ularning hajmini hisoblash, pensiya hamda nafaqalarni qonunchilikka asosan qayta hisob-kitob qilish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. "Pensiya" dasturiy majmuining har bir darajasi o'z vazifasiga ko'ra dasturiy modullarga ega, ya'ni bo'linmalarning faoliyat yo'nalishlariga qarab, aniq vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega dastur vositalaridan iboratdir;

- pensiya ta'minoti tizimida AKTlarining faol joriy etilishi pensiya va nafaqalarning to'g'ri va aniq hisob-kitob qilinishini, davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanilishini, o'zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi;

- pensiya ta'minotida axborot tizimlarining, xususan, PK "Pensiya" dasturiy majmui, "SMS-Pensiya" interaktiv xizmati, "WS Personal" ichki dasturi, Pensiya jamg'armasining rasmiy veb-sayti va ishonch telefonlarining amaliyotga faol joriy qilinishi tizimda AKTlarini rivojlantirish bilan birga mehnat unumdorligini oshirish, pensioner va nafaqa oluvchilarga o'ta qulay shart-sharoitlar yaratish, Pensiya jamg'armasi faoliyati taraqqiyotini ta'minlash imkonini beradi;

- davlat pensiya ta'minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlari rahbar-xodimlarining AKTlaridan foydalanish yuzasidan savodxonligini oshirish muammosi; pensiya tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi; pensiya ta'minoti tizimidagi zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish muammosi va h.k.;

- Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini faol joriy etish va rivojlantirish Kontseptsiyasi Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlarida zamonaviy AKTlarni keng joriy qilish, rivojlantirish va takomillashtirish, axborot tizimlarini o'z vaqtida ishga tushirish, ish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va axborot almashuvini uyg'unlashtirish, pensiya ta'minoti axborot tizimlarining samaradorligini oshirish hamda interaktiv xizmatlarini kengaytirishdan iborat;

– “Nafaqa” axborot tizimi yordamida pensiya hamda ijtimoiy ko’maklarni (yordam) tayinlash, hisob-kitob qilish, qayta hisoblash, shuningdek, oylik nafaqalarni yozish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoni yaratildi. Mazkur tizim keksalarni ijtimoiy himoya qilish, nafaqa ta’minoti tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlaridan foydalanishda ularga qo’shimcha qulayliklar yaratib berish, ma’lumot va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni elektron olish, nafaqa va yordam pullarining o’z vaqtida ajratilishiga xizmat qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta’minoti axborot tizimlarini takomillashtirishda quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Istiqbolda davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

– aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish zarur va bu hol fuqarolarning sug’urta badallarini Pensiya jamg’armasiga to’lash hisobiga uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirib, fuqarolarning mehnat layoqatini yo’qotganda davlat pensiyasi bilan to’liq ta’minlanish imkonini beradi;

– aholini pensiya tizimiga oid huquqiy bilimlarini yanada oshirish va bu yo’nalishda Ommaviy axborot vositalari va matbuotda keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borish zarur.

2. Davlat pensiya ta’minotida axborot tizimlarini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish va interaktiv xizmatlar taraqqiyotini ta’minlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

– Pensiya jamg’armasi va uning hududiy bo’limlari rahbar-xodimlarining AKTlaridan foydalanish yuzasidan savodxonligini yanada oshirish zarur;

– pensiya tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak;

– pensiya tizimida raqobatbardosh dasturiy mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilishini va ichki bozorini hamda ularga

ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirishga ko'maklashish va uning muvofiqlashtirilishini ta'minlash, davlat pensiya ta'minoti va jamg'arib boriladigan pensiya tizimida zamonaviy dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va axborot resurslarini joriy etish va takomillashtirish borish darkor;

- pensiya tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy pensiya axborot tizimlarini rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

- Internet tarmog'ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, pensiya tizimidagi zamonaviy veb-resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur;

- Pensiya jamg'armasi faoliyatida zamonaviy AKTlarini faol joriy etish va rivojlantirishning mukammal Kontseptsiyasini ishlab chiqish va Kontseptsiyada quyidagi yo'nalishlar rivojlantirilishi zarur: a) Pensiya jamg'armasida telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish bosqichlari; b) Pensiya jamg'armasi faoliyatida AKTlarining samaradorligini oshirish jarayonlarni avtomatlashtirish; v) Pensiya jamg'armasining Internet tarmog'idagi veb-saytlari ma'lumotlarini muntazam yangilash, interaktiv xizmat turlarini va ular asosida xizmat turlarini kengaytirib borish; g) Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'limlarida AKTlarini takomillashtirish sharoitida xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish.

3. Davlat pensiya ta'minotining axborot tizimlarini takomillashtirish pensiya ta'minotiga ta'sir qiluvchi quyidagi asosiy ijtimoiy va demografik omillar tahlili va natijalari asosida amalga oshirilishi zarur: mehnat bozorida ish kuchining miqdorining oshib borishi; milliy iqtisodiyotimizdagi norasmiy sektorining norasmiy faoliyat sabalarining ta'siri; davlat ijtimoiy sug'urta va davlat pensiya ta'minoti tizimlari mehnatga layoqatli fuqarolar bilan bevosita va rasmiy majburiyatlarni amalga oshirish imkonlari yo'qligi; noqonuniy mehnat migratsiyasi muammolari; "Yashirin ishsizlik"lar muammosi; majburiy ijtimoiy to'lovlar bo'yicha surunkali qarzдорlar muammosi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son. 02.12.2004.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdagi PF-4822-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmoni.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4161-sonli Farmoni.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-sentyabrdagi "Pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3921-son Farmoni.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 7-dekabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3521-son Farmoni.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 13-martdagi "Pensiya va nafaqalarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1251-sonli Qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-son Qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 13-fevralda "Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi 26-sonli Qarori.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-aprelda 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

1.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori.

1.19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevralda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori.

1.20. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995. 119-b.

1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

## **II. O'quv adabiyotlari, monografiyalar, ilmiy maqola, patent va ilmiy to'plamlar**

2.1. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 232 b.

2.2. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2009. – 576 с.

2.3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. – 676 b.

2.4. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent: "infoCom.UZ" MChJ nashriyoti, 2010. – 367 b.

2.5. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.

2.6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004.

2.7. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

2.8. Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA \* Canada, 2014, - № 3. P. 22-30

2.9. Nuritdinova V.Sh., Sharopova M.A. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent Moliya instituti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 344 b.

- 2.10. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 224 b.
- 2.11. Zokirova M.Sh., Abdug'afforov A.A. Iqtisodiy modellashtirish amaliyoti. – T.: “O'zbekiston”, 1999.
- 2.12. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
- 2.13. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – Toshkent: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.
- 2.14. Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari. “O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 3-b.
- 2.15. Умурзаков Б.Х. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана. “O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 5-9-b.
- 2.16. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. –T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 11-16-b.
- 2.17. Ziyadullaev M.J. Pensiya ta'minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. “O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 19-21-b.
- 2.18. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. “O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 72-74-b.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

3.1. BMT buyurtmasiga ko'ra Sustainable Development Solutions Network tashkiloti tomonidan Xalqaro baxt kuni – 20-martga atab tayyorlangan baxt bo'yicha Jahon hisoboti.

3.2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. – B. 185-186.

3.3. World Bank Population Estimates and Projections (2014)

3.4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Bo'ka tumani bo'limi hisobot ma'lumotlari.

3.5. Internet saytlari:

3.6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);

3.7. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);

3.8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);

3.9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi sayti);

3.10. [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sayti).